


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

A.ABDULLAYEV, I.QAYUMOV, A.ERGASHEV

BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

Beshinchi nashri



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2013

UO'K: 637(075)
KBK 65.052ya722
A12

Ushbu darslik „Buxgalteriya hisobi nazariyasi“ fanining namunaviy dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda buxgalteriya hisobini yuritish, tashkil qilish va soddalashtirish, buxgalteriya balansi, schotlar tizimi hamda xo'jalik ish jarayonlarini hisobga olish, buxgalteriya hisobi schotlari, hujjatlashtirish, xo'jalik mablag'larini inventarizatsiya qilish, buxgalteriya hisoboti kabi dolzarb masalalar amaliy tajribalar asosida keng yoritilgan.

Darslik iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan kasb-hunar kollejarining talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan mazkur sohada faoliyat yuritayotgan ishbilarmon va tadbirkorlar ham foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

I. Nurmatov — iqtisod fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:

A. Mamatqulov — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent;

A. Hakimov — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-02-692-6

© „O'qituvchi“ nashriyoti, 2003

© „O'qituvchi“ NMIU, 2009.

© „O'qituvchi“ NMIU, 2011.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor munosabatlariga o'tishning 5 tamoyili va uning hayotga tatbiq qilinishi natijasida respublikamizda sanoat, qishloq xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa sohalari jadal rivojlanmoqda.

I.A. Karimov O'zR Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: *„Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta'minlash orqali biz mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan o'rta sinfning shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo'lib borishiga erishmoqdamiz. Barchamizga ayonki, aynan ana shu ijtimoiy qatlam — ya'ni o'rta sinf yurtimizda amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirishdan, mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishidan eng ko'p manfaatdordir. Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda“* — deb ko'rsatib o'tdi.

Prezidentimiz qayerda xalq bilan uchrashmasin, ma'ruza qilmasin, asosiy e'tiborni aholining turmush madaniyatiga, uning muntazam yaxshilanib borishiga, ish haqining ortib borishiga alohida e'tibor bergan holda gapirib, mazkur hududning iqtisodiyotiga alohida to'xtaladi. „2008-yil yakunlari va 2009-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar“ ga bag'ishlangan ma'ruzasida, „... shuni aytish kerakki, joriy yilda o'z oldimizga qo'ygan yangi vazifalarni murakkab bir vaziyatda, ya'ni dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiyotiga o'ta keskin ta'sir ko'rsatayotgan jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi

bilan bog'liq bir sharoitda amalga oshirishga to'g'ri keldi", deb ko'rsatib o'tdi.

Respublikamizdagi iqtisodiy o'sish, barcha sohalaridagi rivojlanishda buxgalteriya hisobi va hisobotining alohida o'rni, ahamiyati bor. Har bir korxonada faoliyatida erishilgan yutuq va kamchiliklar bevosita mablag'lar holatidan, ulardan samarali foydalanishdan, tejamkorlik va raqobatbardoshlik muhitidan shakllanadi.

Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, o'z navbatida, iqtisodiy madaniyatni to'g'ri shakllantirish, iqtisodiy tejamkorlikka rioya qilish, mahsulot tannarxini arzonlashtirish kabi omillardan samarali foydalanishni talab qiladi. Yuqoridagi omillarning samarasi bevosita hisob-kitob ishlarining to'g'ri tashkil qilinishiga bog'liq bo'lib, pirovard natijada, foydaning ko'payishiga, rentabellikning oshirilishiga olib keladi. Demak, birinchi xulosa shuki, korxonada va tashkilotning faoliyati bevosita buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari asosida tashkil topadi. Shu o'rinda aytish kerakki, bugungi buxgalteriya hisobining holati bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladimi, degan savolning yechimi qanday? Aytish kerakki, respublikamizda „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“ Qonun qabul qilindi. Qonunning 5- moddasida „Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash“ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatiladi.

Buxgalteriya hisobini yuritish, tashkil qilish va soddalashtirish bo'yicha respublika miqyosida olib borilgan ishlarining hozirgi holatini ijobiy baholash mumkin, bu borada bir talay ishlar qilindi. Lekin bu yetarli emas, hisobni xalqaro standartlar talabiga moslashtirish ko'p mehnatni talab qilmoqda. Mualliflar tomonidan tayyorlangan ushbu darslik „Buxgalteriya hisobi“ bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, uni tayyorlashda davlat o'quv rejasiga amal qilingan. Ushbu darslikdan buxgalteriya hisobini o'rganuvchilar, amaliyotda faoliyat yurituvchilar foydalanishlari mumkin.



I BOB. XO'JALIK HISOBI, UNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

1-§. Hisob to'g'risida tushuncha, uning turlari

Jamiyat taraqqiyotida amalga oshirilgan har bir hodisa va jarayonlar tegishli iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Taraqqiyotning o'zgarishida bevosita ishlab chiqarish va iste'mol, iste'mol va ta'minot doimo birbirini to'ldirib boruvchi jarayondir. Ishlab chiqarishning o'sib borishida iste'molchining iqtisodiy holatiga alohida e'tibor berilsa, undagi o'zgarishlarni o'rganish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash uchun asos yaratiladi.

Har bir ishlab chiqaruvchi, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlariga taalluqli bo'lgan mablag'larini doimo nazorat qilib boradilar va uning natijasida mablag'lar holatidagi o'zgarishlarni, tegishli mablag'ga bo'lgan talabni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati faqat mablag'lar holati bilan emas, balki boshqarish uslubi, holati bilan o'rganiladi va tartibga solinadi. Iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish yordamida boshqarishni takomillashtirish asoslari ishlab chiqiladi. Har qanday ishlab chiqarish jarayoni, asosan, ikki faoliyatni, ya'ni iqtisodiy va boshqarish faoliyatini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishda, *birinchidan*, mavjud mablag'lar holatini o'rganish talab qilinadi, bu esa birinchi bor hisobga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Hisob yordamida xo'jalik faoliyatida yuz beradigan hodisalarni kuzatish, o'rganish orqali xo'jalikni boshqarish uchun asos yaratiladi.

Xo'jalik jarayonlarini kuzatish boshqarish talablariga

javob bermaydi. Buning uchun kuzatilayotgan jarayon va hodisalardagi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarni o'rganish talab qilinadi va buning yordamida o'lchov birliklaridan, ya'ni son va sifat bo'yicha xo'jalikni boshqarishga asos solinadi.

Amalga oshirilgan kuzatish jarayoni o'zining muntazam tashkil qilinmaganligi bilan, bir yerda olib borilmasligi yoki ma'lum vaqt birligida olib borilishi bilan xarakterlanadi. Olingan ma'lumotlarni umumlashtirish imkoniyati yaratilsa ham uning natijalarini xo'jalik faoliyatida qo'llash yetarli deb hisoblanmaydi.

Xo'jalik faoliyatida amalga oshirilayotgan jarayonlar shunday xilma-xilki, ular bir vaqtda yakka holda o'rganilsa yoki kuzatilsa, boshqa birisida — umumlashtirilgan holatda amalga oshiriladi. Demak, aytish mumkinki, kuzatish yordamida xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan hodisalarni son va sifat tomonlariga alohida e'tibor beriladi.

Xo'jalik hisobini tashkil qilish, uni rivojlantirishda ishlab chiqarishning rivojlanishi, savdoning o'sib borishi, mulk shakllaridagi o'zgarishlar har bir ishlab chiqaruvchi, savdogar, mulk egasining o'z mulkiga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi, undan samarali foydalanish, uning to'liqligini nazorat qilishni talab qildi. Bu talablarni bajarish endi faqat kuzatish olib borish bilan kifoyalanmasdan, faoliyat ko'rsatishni talab qila boshladi, chunki korxonalar faoliyatini o'rganish ko'p qirrali jarayondir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ishlab chiqarish bilan ta'minot bir-biri bilan bog'liq bo'lib, mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishni taqozo etadi. Sotish jarayoni mahsulotning asosan pul ifodasida baholanishini taqozo qiladi, ya'ni hisob ishlarida natural o'lchov birliklaridan asta-sekin pul o'lchov birliklariga o'tish namoyon bo'ladi.

Mulk egasi xo'jalik jarayonlaridagi o'zgarishlardan faqat bir maqsadni — foyda olishni ko'zlaydi. Buning uchun mulk egasi o'z mablag'larini qanday mahsulotga, qancha

sarf qilganligini, ularning to'liqligini muntazam nazorat qilish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarish faoliyatining kengayib borishi, savdning o'sib borishi mulkdorlar mulkiy munosabatini tartibga solishni talab qila boshlaydi, ya'ni har bir mulkdor o'z faoliyatini boshqarish bilan birga, o'z mablag'lari holatini nazorat qilish imkoniyatini seza boshlaydi.

Ishlab chiqarishning rivojlanib borishi xo'jalik faoliyatida nazoratni tashkil qilish bilan xarakterlidir. Nazoratning ta'sir kuchini oshirib borish xo'jalik faoliyatidagi hodisa va harakatlarning uzluksiz, ma'lum ketma-ketlikda olib borilishini talab qiladi va bu talab hisob turlarida o'z ifodasini topadi.

Xo'jalik faoliyatida amalga oshirilgan jarayonlarning nazorati, ularni bajarish uslubi bir-biridan farq qiladi. Shunday o'zgarishlar amalga oshiriladiki, ularni faqat kuzatish yo'li bilan baholash mumkin. Bunday kuzatishning faqat bir turini hodisa va harakatlarda ko'rish mumkin, buning uchun operativ (tezkor) kuzatish o'tkaziladi.

Misol uchun, ishchining ma'lum ish vaqtida, ya'ni bir soat davomida tayyorlagan mahsulotini sanab, o'lchab baholash operativ holati o'rganiladi. Lekin buni ishlab chiqarishni tezlashtirish uchun yetarli ma'lumot yig'ildi, deb hisoblab bo'lmaydi. Bundan faqat operativ holat uchun ma'lumot olish mumkin.

Hisob yordamida ishlab chiqarish jarayonida mavjud buyum va hodisalar holati o'rganilgan. Hisob yordamida tovar ayirboshlashni tartibga solish uchun ma'lum hisob o'lchovlaridan (birliklaridan) foydalanilgan.

Tarixiy manbalarga asoslanib aytish mumkinki, hisobning rivojlanishi, unga qo'yiladigan talablarning o'zgarib borishi bevosita tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog'liqdir.

Hisob ko'rsatkichlari yordamida mulkka bo'lgan munosabat, mulkning to'liqligi, ishlab chiqarish holati, mahsulotni sotish imkoniyatlari o'rganiladi.

Hisob yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi iqtisodiy o'zgarishlar, ya'ni mablag'lar harakati o'rganiladi. Hisob ko'rsatkichlariga asosan moddiy javobgar shaxslarning faoliyati nazorat qilinadi. Hisob — nazorat vositasi hisoblanadi. Uning yordamida mulk egasining rivojlanish imkoniyatlarini belgilash uchun asos yaratiladi.

Hisob ko'rsatkichlariga amal qilgan holda uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolli rejalashtirish ishlarini olib borish mumkin. Lekin bu imkoniyatdan barcha hisob turlarida foydalanishning iloji yo'q.

Hozirda xalq xo'jaligi tarmoqlarida hisobning qaysi turini qo'llash, har bir hisob turidan o'rinli foydalanishdan asosiy maqsad, iqtisodiy ko'rsatkichlarni ma'lum bir maqsadga yo'naltirish, boshqarishni soddalashtirishdir. Xalq xo'jaligida quyidagi hisob turlaridan keng foydalanilmoqda:

- operativ hisob;
- statistik hisob;
- buxgalteriya hisobi.

Operativ hisob. Bu hisob yordamida amalga oshirilayotgan muammolarni ma'lum bir belgilangan vaqt davomida kuzatish ishlari amalga oshiriladi. Bu hisobning o'ziga xos xususiyati shundaki, *birinchidan*, uni o'tkazish muddati korxonahabari tomonidan belgilanishi mumkin, *ikkinchidan*, ma'lumotlarni bevosita aloqa vositalari yordamida olish mumkin, *uchinchidan*, ularni rasmiylashtirishda tayyorlangan hujjatlar tizimidan foydalanmaslik mumkin, bundan tashqari, operativ hisob ma'lumotlariga asoslanib balans tuzish imkoniyati yo'q. Operativ hisob ma'lumotlaridan ko'proq boshqarish bo'g'inida, ishlab chiqarishni tashkil qilishda, reja topshiriqlarining bir me'yorda bajarilishini nazorat qilishda foydalaniladi.

Operativ hisob ma'lumotlarining yana bir xususiyati shundaki, ular tegishli hisobot shakllarida ifoda qilinmaydi, balki hisob ishlariga asos qilib olinadi. Operativ hisobning boshqa hisob turlaridan farqi shundaki, undan maxsus tanlab olingan va maqsadga yo'naltirilgan xo'jalik muammolarini boshqarishda, holatini o'rganishda foydalaniladi.

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda bu hisob turini *operativ-texnika hisobi*, deb ham ataydilar, lekin hisobni bunday deb atashga salbiy fikr berish bilan birga, aytish lozimki, operativ hisob oldida turgan vazifaning hal qilinishi operativ hisobga qo'shimchalar qo'shib o'rganish, masalan, operativ-texnika, operativ-ishlab chiqarish kabi xususiyatlari bilan xarakterlanadi, xolos.

Statistik hisob. Bu hisob xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida keng ishlatilmoqda. Statistik hisobning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu hisob turida amalga oshirilgan kuzatish to'liq bo'ladi, bu hisob turida ko'proq bir turli xo'jalik jarayonlari o'rganiladi. Statistik hisob yordamida amalga oshirilgan xo'jalik muammolarini guruhlash yoki sohaning iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishini hisobga olish uchun asos yaratiladi.

Statistik hisobni tashkil qilishda, yuritishda ko'proq bir turli xo'jalik muammolariga alohida e'tibor beriladi. Hisob natijalarini umumlashtirish, asosan, tasdiqlangan hujjatlar yordamida amalga oshiriladi.

Misol uchun, «*Mehnat haqida hisobot*» hujjat shaklini olaylik. Bu hisobot shakli, asosan, statistik hisobot hisoblanadi. Unda jami xodimlar soni, ularga sarf qilingan ish haqi xarajatlarini ko'rsatish bilan birga, unda ishchilarning jinslari bo'yicha holati, ish haqi bilan bog'liq xarajatlar manbalari, hisobot davrida ishchilarga berilgan mukofotlar turlari ko'rsatiladi.

Statistik hisobda aks ettirilgan ma'lumotlar turli o'lchov birliklarida ko'rsatilishi mumkin. Bu hisobning o'ziga xos xususiyatidan yana biri hisobot shakllari, uni tuzish va topshirish yo'llari davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tartibga solinadi. Hisob ko'rsatkichlarini umumlashtirishda operativ buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Buxgalteriya hisobi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatini ro'yxatdan o'tgan, tasdiqlangan Nizom asosida olib borish uchun javobgardir, o'z navbatida,

mulkning to'liqligi, joylanishi va tashkil topishini o'z nazoratiga oladi. Bu vazifaning bajarilishi mulk egasiga tegishli mablag'lar holatini o'rganish uchun asos yaratadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida mablag'larning bir turdan ikkinchi bir turga o'tishi, ularga bo'lgan ehtiyojning qondirilishini doimiy nazorat qilishni talab qiladi. Yuqoridagi vazifalarni bajarishda mulkdor shunday hisob tizimini talab qiladiki, u hisob turi, *birinchidan*, mablag'lar harakati to'g'risida mulkdorga o'z vaqtida yetarli ma'lumot beradi, *ikkinchidan*, xo'jalik operatsiyalarining muntazam to'g'riligini nazorat qiladi, *uchinchidan*, mahsulot tan-narxini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu hisob turi buxgalteriya hisobi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining boshqa hisob turlaridan farqi shundaki, bu hisob turini tashkil qilish bevosita davlat tomonidan nazorat qilinadi, u korxonada va tashkilotlarda uzluksiz va faol qo'llanadi.

Buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari yordamida korxonada mablag'larining holati o'rganiladi, kirim-chiqim hujjatlar asosida olib boriladi. Korxonada mablag'larining xarajati buxgalteriya hisobi schotlarida ikki yoqlama yozuv bilan olib boriladi.

2-§. Buxgalteriya hisobining tarixiy rivojlanishi

Jamiyat taraqqiyotida ishlab chiqarish va savdosotiqning rivojlanishi taraqqiyot omili hisoblanib, uning rivojlanishi bilan hisobga olish, hisobni yurgizish uchun talab yuzaga kela boshlagan. Iqtisodiy adabiyotlarning tahlil qilinishiga qarab aytish mumkinki, hisobning rivojlanishiga kamida olti ming yil bo'lgan.

XV asrning oxirlarida Italiyadagi taraqqiyot buxgalteriya hisobining rivojlanishiga va, o'z navbatida, ikki yoqlama yozuvning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1494-yilda Italiyada buxgalteriya hisobining ikki yoqlama yozuvga asoslangan, italyanacha hisob shakli deb yuritilgan

shakli yaratildi va shu davrdan boshlab, hisobning yuksalishida ijobiy o'zgarishlarga erishila boshlandi.

Har bir davr hisobning rivojlanishini talab qilgan holda uning ilg'or usul va tamoyillarini ishlab chiqishni zarurat qilib qo'ya boshladi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi xalqimizning orzu-istaklarini, milliy sha'ni va huquqlarini tiklash, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topishi bilan birga, mustaqil davlat iqtisodiyotini shakllantirish va uni rivojlantirishga qo'yilgan qadam bo'ldi.

O'tgan qisqa vaqt ichida iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu borada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning samarasi buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar asosida tashkil qilishni taqozo qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi hisobga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishga, uning ilg'or usullarini ishlab chiqarishga joriy qilishni talab qilmoqda.

Respublikada buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida, uni xalqaro standartlar asosida tashkil qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Iqtisodiyot oldidagi ustuvor vazifalarni amalga oshiradigan buxgalteriya hisobining ahamiyati kattadir.

Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalq xo'jaligining boshqaruvi va korxonalar faoliyatini nazorat qilishda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish talab qilinadi. Bu borada bir qator ishlar, shu jumladan, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun, xalqaro buxgalteriya hisobi andozalariga asosan milliy buxgalteriya hisobi andozalari ishlab chiqildi, mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom (1999-yil 5.02. 54-son qarori) tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan yangi schotlar rejasi tasdiqlandi.

Demak, respublikamizda buxgalteriya hisobini tashkil

qilish va uni takomillashtirish davr talabidir. Bu davrning yutug'ini belgilashda hisob shakllarini soddalashtirish hisob va hisobotning ta'sir kuchini oshirish bilan bog'liq deb aytish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz iqtisodiyotidagi ijobiy o'zgarishlar bilan ularni boshqarishdagi dastaklar bir-biri bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish buxgalteriya hisobini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirishni talab qilmoqda. Chunki buxgalteriya hisobi iqtisodiyotni boshqarish uchun axborotlar tayyorlab berish hisobiga iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

3-§. Buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan o'lchov birliklari

Korxonalar va tashkilotlarda mavjud mablag'lar faoliyat ko'rsatish davomida o'zining tuzilishinigina emas, balki miqdoriy holatini ham o'zgartirib boradi. Hisob turlarini to'g'ri belgilash kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni to'g'ri nazorat qilish imkonini berish bilan birga, ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ta'minlaydi.

Hisobda qo'llaniladigan o'lchov birligi kuzatilayotgan jarayonni tashkil qilish, uning oldiga qo'ygan maqsadiga ham bog'liqdir. Iqtisodiy informatsiyalarni qayta ishlash, ularni tartibga solishda, xo'jalik faoliyatini boshqarishda o'lchov birliklaridan to'g'ri foydalanish talab qilinadi.

Hisob ishlarida turli o'lchov birliklaridan foydalaniladi, o'lchov birliklarini ifodalashda qaysi hisobda qanday o'lchov birliklaridan foydalanish bevosita kuzatilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik operatsiyalariga ham bog'liqdir. Umuman olganda, hisob ishlari turli o'lchov birliklarida, shu jumladan, dona, kilogramm, litr, so'm ko'rsatkichlarida ifoda etiladi. Yuqoridagi o'lchov birliklarini uch asosiy guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi — natural o'lchov birliklari, ikkinchisi — mehnat o'lchov birliklari, uchinchisi — pul o'lchov birliklari.

Korxonada xo'jalik faoliyatini to'g'ri baholashda, son va sifat jihatdan iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish turli o'lchov birliklaridan foydalanishni talab qiladi. Agar iqtisodiy ko'rsatkichlar tegishli o'lchov birliklarida ifoda etilgan bo'lsa, bunday ko'rsatkichlarni iqtisodiy axborot ko'rsatkichlari deb hisoblab bo'lmaydi. Demak, har qanday amalga oshirilgan (mashg'ulot) hodisa hisob ko'rsatkichlarida aks ettirilmaydi. O'lchov birligi hisobning asosiy belgilaridan deb hisoblanadi. Hisob ishlarida qo'llaniladigan o'lchov birliklaridan foydalanishda natural ko'rsatkichlardan, mehnat va pul o'lchov birliklaridan alohida-alohida foydalanish mumkin.

Shunday xo'jalik jarayonlari amalga oshiriladiki, ularda bir vaqtda natural va pul o'lchov birliklaridan foydalaniladi. O'lchov birliklarini qo'llash, *birinchidan*, hisob turiga bog'liq bo'lsa, *ikkinchidan*, amalga oshirilayotgan xo'jalik jarayoniga ham bog'liqdir. Hisob turlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'lchov birliklaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Ayrim hollarda bajariladigan ish va xizmatlar hajmini to'g'ri aniqlashda murakkab — *natural o'lchov birliklaridan* foydalaniladi. Misol uchun, elektroenergiya sohasida *kilovatt-soat*, avtomobillarda esa *tonna-kilometr* kabi o'lchovlarda hisoblanadi.

Mehnat o'lchov birligi mahsulotni ishlab chiqarish yoki ma'lum bir mahsulotga sarf qilingan mehnat sarfini o'lchashda ishlatiladi. Mehnat o'lchov birligi ko'p hollarda bir turli xo'jalik munosabatlarini o'rganishda qo'llanadi.

Pul o'lchov birligi. Korxonada va tashkilotlar bajarilgan ish va xizmatlar bo'yicha o'zaro hisob-kitobini yuritadilar. Bunday hisob-kitoblar, asosan, pul o'lchov birligida olib borilishi bilan birga, bajariladigan ish va xizmatlarning natura yoki mehnat o'lchov birliklarida ko'rsatishini talab qiladi.

Pul o'lchov birligi bevosita tovar - pul munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Tovar ishlab chiqarish va qiymat qonunining amal qilishi bilan bog'liq pul o'lchov birligi hozirgi sharoitda korxonalar o'rtasidagi to'lov vositasi sifatida qo'llanilib kelmoqda.

Hisobda pul o'lchov birligining ko'proq qo'llanishi, boshqa o'lchov birliklariga nisbatan ko'proq ishlatilishi hisob mazmunini pasaytirmoqda. Pul o'lchov birligi hisob ishlarida keng qo'llanishiga asosiy sabablardan biri — bu har xil o'lchov birliklarida umumlashtirish imkonini bersa, ikkinchisi, korxonalar o'rtasidagi hisob-kitoblarni bir me'yorda yuritish imkonini beradi.

Hisob xo'jaliklarda amalga oshirilgan jarayonlarni hisobga olish bilan birga, korxonalar va tashkilotlarning bir me'yorda ishlashini ta'minlashda o'z imkoniyatlarini to'g'ri ishga solishda, iqtisodiy o'zgarishlarning xo'jalik faoliyati bilan bog'liqligini ta'minlashda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini umumlashtirishda, nazoratni tashkil qilishda yaqindan yordam beradi.

4-§. O'zbekiston Respublikasida „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“ gi Qonun

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishni amalga oshirish yangicha iqtisodiy fikrlashni bosh vazifaga aylantirdi. Shundan kelib chiqib, hisob ishlari bilan shug'ullanuvchi kishilar hisob ishlarida yangicha iqtisodiy fikrlash bilan birga, korxonalar mablag'larining holati, tashkil topishi, manbalari bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib, boshqarish ishlarida qo'llashlari kerak. Korxonalar va tashkilotlarga taalluqli bo'lgan mablag'lar buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarida ifoda etiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish va to'g'ri

tashkil qilishga alohida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26- mart 164- sonli qarori O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi schotlari tizimini takomillashtirishga qaratilgandir. Qarorda buxgalteriya hisobini yuritishning afzalliklari, shu jumladan, xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish, buxgalteriya hisobi va unga qo'yilgan talablar o'z ifodasini topgan.

Mazkur qarorning qabul qilinishi bevosita buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha buxgalteriya hisobi milliy andozalarini ishlab chiqishda alohida ahamiyatli deb hisoblaymiz.

Respublikamizdagi iqtisodiy o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni buxgalteriya hisobi va hisoboti oldiga yangi-yangi talablarni qo'ymoqda. Bu talablarni bajarish buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishga asos bo'lib xizmat qiluvchi huquqiy asoslarni qabul qilishni taqozo qildi.

1996- yil 30- avgustda „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“ Qonun qabul qilindi va respublika miqyosida buxgalteriya hisobini yuritishni tashkil qilish uchun asos yaratildi, ya'ni respublikamizda buxgalteriya hisobi sohasida islohotlar davr talabi asosida shakllandi, jahon buxgalteriya andozalariga moslashtirildi. Iqtisodiyotni rivojlantirishga qarab hisob ishlarini takomillashtirish istiqbollari belgilandi. Buxgalteriya andozalarini yaratishdan kutilayotgan asosiy maqsad chet el investitsiyalarining respublikamizga jalb qilinishidir.

Demak, respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar mavjuddir.

Korxonalar va tashkilotlar mulk shaklidan qat'i nazar o'z xarajatlarini qoplash va o'zini o'z mablag'i bilan ta'minlash maqsadida ish faoliyatini tashkil qilish davr

talabidir. Bu vazifani bajarish, *birinchidan*, „Bank-kredit tizimini mustahkamlash, beriladigan kreditlar turlarini va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda banklarning ishtirok etishlarini kengaytirish zarurdir“. Buxgalteriya hisobi yordamida korxonada mablag'larining holati, tegishli mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji o'rganiladi va ularning to'g'riligi nazorat qilinadi.

Mulk shaklidan qat'i nazar korxonada ustavi korxonaning tashkil qilinganligini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir. Korxonada ustaviga asosan, u bilan iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish belgilangan tartibda shartnomalar tuzish imkoniyati yaratiladi. Korxonada davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab, tuzilgan deb hisoblanadi. Bu to'g'risida hokimning qaroriga asosan istalgan bankda korxonaning hisob-kitob schotini ochish imkoniyati yaratiladi.

Korxonalarda buxgalteriya hisobi tashkil qilish uchun asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“gi Qonun hamda „O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida“gi Nizom hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilish bo'yicha javobgarlik mulk egasiga, korxonada rahbariga yuklanadi.

Korxonada rahbari, ya'ni mulk egasi ish va tashqi hisob tizimini ishlab chiqish, amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini nazorat qilish, hujjatlar saqlanishini ta'minlash bo'yicha tegishli nazoratni olib boradi.

O'zbekistonda korxonada bosh buxgalteri zimmasida quyidagi holatlar bo'yicha bevosita javobgarlik saqlanib qoladi:

— buxgalteriya hisobi va hisobotini noto'g'ri olib borish, xatoliklarga yo'l qo'yish, hisob ko'rsatkichlarini soxtalashtirishda;

— aylanma mablag'lar va asosiy vositalarning kirish va chiqishini hujjatlashtirishda, ularning sarf qilinishi bo'yicha tegishli buxgalteriya yozuvlarini noto'g'ri ko'rsatgan hollarda;

— debitorlik va kreditorlik nazoratlarini tartibga solishda;
— buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha amaldagi nizom va yo'riqnomalar buzilganda.

Ayrim hollarda korxonada bosh buxgalteri rahbar bilan birgalikda javobgar deb hisoblanadi. Bunday holatlarga korxonada moliyaviy holatini tartibga soluvchi nizom, qaror va yo'riqnomalar tuzilganda, belgilangan muddatlarda buxgalteriya hisobi topshirilmaganda, talon-tarojlik hollari aniqlanganda, buxgalteriya hisobi yordamida korxonada va mulkdorlarning faoliyati o'z ifodasini topadi. Hisob yordamida mablag'larning to'liqligi, amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari hujjatlar bilan asoslanganligi, berilgan hisob yozuvlarining to'g'riligi nazorat qilinadi.

Buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlariga asosan korxonaning xo'jalik faoliyati baholanadi, ya'ni hisobot davri bo'yicha foyda va zararlar hisob-kitob qilinadi.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asosan moddiy javobgar shaxsning ish faoliyati nazorat qilinadi, ular zimmasidagi tovar va moddiy boyliklarning to'liqligi ta'minlanadi. Tovarlarni va moddiy boyliklarning to'liqligining nazorati investitsiya (yo'qlama) qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobi yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisob-kitob qilinib, reja va tannarx o'rtasidagi farqlar aniqlanadi. Hisob ko'rsatkichlarida mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan xarajatlar sarhisob qilinib, tejamkorlik omillari belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish jarayoni o'rganiladi, ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari belgilanadi.



TEST SAVOLLARI

1. Hisob turlari nechta?

- A) 1 ta; B) 5 ta; C) 3 ta;
D) 2 ta; E) 6 ta.

2. O'zbekiston Respublikasida „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1990- yilda;
- B) 1995- yilda;
- C) 1999- yilda;
- D) 1996- yilda;
- E) 2000- yilda.

3. Buxgalteriya hisobida natural o'lchov birliklari ishlatiladimi?

- A) ha, ishlatiladi;
- B) yo'q, ishlatilmaydi;
- C) faqat pul o'lchov birligi ishlatiladi;
- D) valuta ishlatiladi;
- E) chet el so'mi ishlatiladi.

4. Buxgalteriya hisobida qaysi o'lchov birliklari ishlatiladi?

- A) pul, metr, kilogramm, dona;
- B) tonna, tiyin;
- C) so'm, tanga;
- D) dollar, so'm;
- E) kilogramm, dollar.

5. Operativ hisob ma'lumotlari balansda ko'rsatiladimi?

- A) ko'rsatiladi;
- B) ko'rsatilmaydi;
- C) schotda ko'rsatiladi;
- D) faqat so'mda ko'rsatiladi;
- E) aylanma vedomostda ko'rsatiladi.

6. Statistika hisobi ma'lumotlar balansida ko'rsatiladimi?

- A) faqat schotda ko'rsatiladi;
- B) faqat natural ko'rsatkich;
- C) ko'rsatiladi;
- D) ko'rsatilmaydi;
- E) aylanma hisobda ko'rsatiladi.

7. Buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari bo'yicha balans tuzish mumkinmi?

- A) mumkin emas;
 - B) mumkin;
 - C) faqat operativ ma'lumot beradi;
 - D) faqat nazorat uchun kerak;
 - E) bilmayman.
8. Operativ hisob kim tomonidan olib boriladi?
- A) bosh hisobchi tomonidan;
 - B) bosh muhandis tomonidan;
 - C) rahbar tomonidan;
 - D) nazoratchilar tomonidan;
 - E) barcha javoblar to'g'ri.
9. Operativ hisob yuritish uchun hujjatlar namunasi bormi?
- A) bor;
 - B) yo'q;
 - C) tuzilmoqda;
 - D) tasdiqlanmagan;
 - E) bilmayman.



II BOB. BUXGALTERIYA HISOBINING PREDMETI VA USULLARI

1-§. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish

Xalq xo'jaligi rejalarining bajarilishi ustidan nazorat olib borish buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifaning bajarilishi korxonalarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayoni va operatsiyalarini o'z vaqtida, aniq va hujjatga asoslangan holda buxgalteriya hisobida aks ettirish yo'li bilan ta'minlanadi.

Buxgalteriya hisobi xalq xo'jaligi rejalarini ishlab chiqishi va ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borish uchun korxonalaridagi mavjud asbob-uskunalar, ularning quvvati, joylanishi, qay darajada foydalanilayotganligi va ichki manbalari to'g'risida ma'lumot berishi kerak.

Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar tannarxini pasaytirish, korxonalarda va ularning ayrim bo'linmalarida ichki xo'jalik hisobini keng

qo'llash va mustahkamlash, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mehnatning turli shakllarini rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish ham buxgalteriya hisobining vazifasidir.

Buxgalteriya hisobining navbatdagi vazifalaridan yana biri mehnatga haq to'lashning eng oqilona tizimi va shakllarini qo'llash yo'li bilan mehnatning miqdori va sifatiga qarab taqsimlash asosini to'g'ri amalga oshirish ustidan nazorat olib borishdir.

Hisob ishlarini tashkil qilishda material, yoqilg'i, energiya va ish haqi xarajatlari me'yorlariga va xo'jalik xarajatlarining tuzilmasiga qattiq rioya qilinishi ustidan nazorat qilishni ta'minlaydi.

Shuningdek, u korxonalarining o'zlariga, vazirliklarga, jamoa tashkilotlariga va muntazam ravishda davlat rejalarining bajarilishi yuzasidan ma'lumot berish va nazorat o'rnatish, shuning bilan birga, ularning faoliyatiga amaliy ta'sir qilinishini ta'minlay oladigan zarur ma'lumotlarni yetkazib beradi. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobining vazifasiga mulkning to'liq saqlanishini ta'minlash va undan to'g'ri foydalanish, xo'jalik hisobini joriy qilish va mustahkamlash, shu asosda iqtisod rejimini o'rnatish ham kiradi.

Bunday vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi va xalq xo'jaligini boshqarishda keng foydalanish uchun hisob oldiga ayrim talablar qo'yilgan. Bu talablarga reja ko'rsatkichlarini hisob ko'rsatkichlari bilan taqqoslash mumkinligi, ularning aniqligi va to'g'riligi, to'laligi va o'z vaqtida bajarilishi kabilar kiradi.

Reja ko'rsatkichlarini hisob ko'rsatkichlari bilan taqqoslash mumkinligi davlat reja topshirig'ining bajarilishini tekshirishga imkoniyat yaratadi. Chunki bu ma'lumotlar o'zaro bir xil bo'lmasa, ularni solishtirish imkoni bo'lmaydi. Misol uchun: rejadagi tayyor mahsulotni sotish ko'rsatkichlari (assortimenti, navi, turi, bahosi, miqdori, vaqti va boshqalar) hisobidagi xuddi shu reja ko'rsatkichlarda bo'lmasa, farqlarning mohiyati va sabablarini aniqlash mumkin emas.

Shu bilan birga, reja va hisob ma'lumotlarini taqqoslashning zarurligi shundaki, korxonaga kelgusida bajariladigan ishlar rejasini tuzishi uchun hisob ko'rsatkichlari yordamida o'tgan davrda qanday natijalarga erishilganligi to'g'risida ma'lumotlar oladi.

Hisob ma'lumotlarining aniqligi va to'g'riligi. Bunda korxonalarining xo'jalik jarayonida sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalari qanday bo'lsa, shunday aks ettiriladi. Hisob ma'lumotlarining to'g'ri ko'rsatilishi qonun bilan muhofaza qilinadi.

Hisob ma'lumotlarining to'liqligi va o'z vaqtida bajarilishi. Hisob xo'jalik jarayonining hamma tomonini egallamoqligi, u to'g'rida to'la tavsifnoma bermog'i zarur. Sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar qat'iy o'rnatilgan muddatda berilmog'i kerak. O'z vaqtida va to'la olib borilgan hisob yordamidagina korxonaning xo'jalik faoliyatiga to'g'ri rahbarlik qilish, xo'jalik jarayonini mukammal o'rganish, sodir bo'lgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash xo'jalikning ichki zaxiralarini axtarib topish imkoniyatlariga ega bo'lishi mumkin. Ana shundagina hisobning ta'sirchanlik roli oshadi.

Hisobning ravshan va hammabopligi. Hisobning bu turdagi ravshan va hammabopligi faqat hisob xodimlarigagina tushunarli bo'lib qolmay, balki butun mehnatkash ommaga tushunarli bo'lish imkonini beradi. Buning uchun esa hisob ko'rsatkichlari sodda va tushunarli bo'lishi, korxonaga xo'jalik faoliyatining muhim tomonlarini aniq xarakterlaydigan bo'lmog'i kerak.

Ravshan va hammabop tarzda olib borilgan hisob korxonani ta'sis etuvchi va qatnashuvchilarni ishlab chiqarishni boshqarishga keng jalb qiladi. Hozirgi paytda mamlakatimizda hisob ishlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlar, eng avvalo, hisob ishlarini qisqartirish, soddalashtirish, hujjatlarning rekvizitlarini kamaytirishga hamda hisobni xalqaro standartlar darajasiga yetkazishga qaratilgan ishlardir.

Bundan tashqari, hisobning ravshan, hammabop tarzda olib borilishini ta'minlash uchun hisob ishlari yuqori malakali, faol va ijodiy tashabbuskor xodimlar qo'liga topshirilishi zarur.

Hisobning rejaliligi va arzonligi. Hisobni rejali olib borish va uni arzonga tushirishga hisob apparatini qisqartirish, hisob ishlarini to'la mashinalashtirish, zamonaviy hisob shakllarini va buxgalteriyaning avtomatlashtirilgan ish joylarini keng qo'llash, boshlang'ich ma'lumotlarni mukammallashtirish va hisobni markazlashgan holda tashkil qilish bilan erishiladi. Mana shunday tadbirlar amalga oshirilgandagina hisob xodimlarining soni kamaytirilishi va mehnat unumdorligi oshirilishi mumkin.

Buxgalteriya hisobining boshqa hisob turlaridan asosiy farqi shundaki, birinchidan, buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish tartibi va javobgarlik O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“ gi Qonun bilan belgilangandir. Qonunning 6- moddasida, jumladan, shunday deyilgan:

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yaratish uzluksizligi;
- xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning aniqligi va h.k.

Hisobot davri daromadlari va xarajatlarning muvofiq- ligi: aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi. Buxgalteriya hisobining yana bir xususiyati shundaki, uning tashkil qilinishida moddiy javobgarlik xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Ikki moddiy javobgar shaxslar tomonidan tuziladigan hisobotlar buxgalteriya hisobini yuritish uchun asos hisoblanadi. Buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan muammolar uzluksiz ikki yoqlama yozuv yordamida tegishli schotlarda ifoda etiladi. Bu xususiyatlarni boshqa hisob turlarida uchratish mumkin emas.

Buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan xo'jalik ope-

ratsiyalari, albatta, hujjatlar bilan asoslangan bo'lishi shart, demak, buxgalteriya hisobining asosida xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish yotadi. Buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarini umumlashtirish ma'lum belgilangan sanalarga hisobot tuzish imkonini beradi. Boshqa hisob turlarida bunday holatni kuzatish imkoniyati yaratilmagan, ya'ni operatsiya statistika hisoblari bo'yicha hisobot tuzish mablag'lar holatini nazorat qilish imkoniyati yo'q. Operativ, statistik hisoblar yordamida faqat kuzatish, ma'lum vaqt birligida holatni o'rganish uchun ma'lumotlar olish mumkin. Bu ma'lumotlar asosida tegishli hisob va hisobotning to'g'riligini isbotlash uchun asos yaratilmaydi.

2-§. Buxgalteriya hisobining predmeti

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati tashkiliy, ishlab chiqarish, sotish jarayonlari bilan o'z faoliyatini tartibga solish uchun harakat qiladi va bu harakat natijasida uning moliyaviy holati o'zgarib boradi, bu faoliyat davomida mahsulot ishlab chiqarishning uzluksizligi, ta'minotining talabga mos kelish imkoniyatlarini tezlashtiruvchi omiliga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bu holat korxonada mablag'lari tarkibidagi tegishli o'zgarishlarni yuzaga keltirish bilan birga, mulk egasining tegishli mablag'larga bo'lgan talabini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Amalga oshirilgan har bir jarayonda mablag'lar-ning biridan ikkinchisiga o'tish hollari namoyon bo'ladi. Ya'ni xomashyo tayyor mahsulotga, tayyor mahsulot pulga aylanishi bilan mablag'lar harakati o'rganiladi. Demak, buxgalteriya hisobi yordamida har bir korxonada va tashkilotlarga taalluqli bo'lgan mablag'lar hamda xo'jalikda amalga oshirilgan xo'jalik jarayonlari aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobi nazariyasi hamda buxgalteriya hisobi kurslarini va unga tenglashtirilgan tarmoqlarda buxgalteriya hisobi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi fanining tashkil topishi, bu fanning

predmetini o'rganish — hozirgi iqtisodni erkinlashtirish sharoitidagi vazifalarini o'rganishda xalqaro va milliy buxgalteriya standartlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish sharoitida o'rganish va tahlil qilish imkonini beradi. Buxgalteriya hisobini o'rganish, birinchi navbatda, uning vazifalarini o'rganishdan boshlanishi kerak, chunki har bir fan o'z vazifalarini bajarishda tegishli usullardan foydalanish imkonini yaratadi. Bizning nazarimizda fanning predmeti o'z oldida turgan vazifalarini bajarish uchun shu fanga oid tegishli usullarni taqozo qiladi.

Mulk shaklidan qat'i nazar korxonalar va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi yuritiladi, bu „Korxonalar to'g'risida“ gi Qonunda belgilangan.

Iqtisodiy adabiyotlarda, jumladan, „Buxgalteriya hisobi“ ga doir adabiyotlarda buxgalteriya hisobini yuritish bevosita mablag'lar harakati bilan bog'liq nazoratni kuchaytiradi, moliyaviy natijalarni aniqlash imkonini yaratiladi, mahsulot tannarxi aniqlanadi, deb tushuntiriladi. To'g'ri, yuqoridagi fikrlar buxgalteriya hisobi oldidagi vazifalarni ham hal qilishda zaruriyati yuqori, lekin moddiy javobgarlik tomonlarini esdan chiqarish yoki inobatga olmaslik buxgalteriya hisobi predmetini ochib berishda ayrim kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobi predmetida moddiy javobgarlik moddiy javobgar shaxslarning mablag'lar holati to'g'risidagi hisoboti predmetini o'rganishda alohida e'tiborni talab qiladi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mulk shaklidan qat'i nazar korxonalar va tashkilotlarda mablag'lar harakatining boshlang'ich davri bo'lib, o'tkazilgan kunini emas, balki hujjatda ko'rsatilgan mablag'lar harakati moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarida aks ettirilishi hisoblanishi kerak.

Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misolga murojaat etaylik.

Havo va suv inson organizmi uchun nihoyatda zarurdir. Biroq havo va suv qanchalik zarur bo'lishiga qaramay,

buxgalteriya hisobi schotlarida havo, suv degan schotlar yo'q, chunki buning miqdori, summasi biror moddiy javobgar shaxsning hisobotida ko'rsatilmaydi. Demak, buxgalteriya hisobi predmetini o'rganishda moddiy javobgarlik tamoyiliga alohida ahamiyat berish talab qilinadi, korxonada mablag'larining harakatini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun tegishli usullardan foydalaniladi.

Jamiat taraqqiyotida, alohida aholi turmush tarzining shakllanishida takror ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat unumdorligini oshirishda buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan to'g'ri foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Buxgalteriya hisobi yordamida ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan asosiy vositalar, xomashyo va materiallar, tayyor mahsulot, ya'ni ishlab chiqarishga ta'minot va sotish jarayonlarini tashkil qilish uchun zamin yaratiladi va ularning to'liqligini nazorat qilishadi. Takror ishlab chiqarishning bir me'yorda uzluksiz tashkil qilinishi bevosita ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining bir usulda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Qaysi bir jarayonni olmaylik, unda mablag'lar harakatining o'zaro bog'lanishi buxgalteriya hisobi schotlarida ifoda etilishining guvohi bo'lamiz.

Demak, har bir jarayonda tegishli moddiy javobgarlik talablari natijasida ularni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan buxgalteriya hisobi va hisobotlari yuritiladi.

Korxonada va tashkilotlar davlat, nodavlat, budjet, qo'shma va xususiy korxonalarini o'z ichiga oladi. Buxgalteriya hisobining yana bir xususiyati shundaki, u mulk shaklidan qat'i nazar barcha tashkilotlarda yuritiladi. Ishlab chiqarish bilan bog'liq tayanch manbalariga asosiy e'tibor qaratilsa, budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi yordamida rejalashtirilgan sarf-xarajatlarni belgilangan me'yorlarga mos qilish o'rganiladi, buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish

bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan turli mulkchilikka asoslangan mablag'lar harakati o'z ifodasini topadi.

Buxgalteriya hisobini o'rganish, uni tatbiq qilish korxonalar mulkining to'liqligi, ta'minlashda hisobni to'g'ri yuritishga amal qilish, eng avvalo, buxgalteriya hisobining predmeti mavzu va bu fan orqali nimalar o'rganiladi, degan savolga to'g'ri javob berilishini talab qiladi.

Bu savolga javob professor M. Ostonaqulov tomonidan yozilgan „Buxgalteriya hisobi nazariyasi“ darsligida „Buxgalteriya hisobi predmeti kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitida korxonaning pul ifodasida aks ettiriladigan xo'jalik mablag'lari va shu mablag'lar manbalari, ularning xo'jalik faoliyati va moliyaviy natijalaridir“¹ deb ko'rsatilgan. Bunday ta'rif berish, *birinchidan*, o'zbek tilida birinchi bor berilgan bo'lishiga qaramay, professor M. Ostonaqulov buxgalteriya hisobini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'langanligini, bu buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligini ochib bergan, qo'llash doirasini aniqlab berish darajasiga erishgan, yuqorida ko'rsatilgan darslikda bu to'g'rida ayrim iqtisodchilarning fikr va mulohazalari ham ko'rsatilgan.

Darslikda buxgalteriya hisobotining predmeti qanchalik talqin qilinmasin, ta'rifni biroz o'zgartirishga harakat qilindi. Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobi predmetiga quyidagicha ta'rif berilsa, maqsadga muvofiqdir:

Buxgalteriya hisobi predmeti deb, mulk shaklidan qat'i nazar korxonalar va tashkilotlarga taalluqli bo'lgan moddiy javobgarlik asosida turli o'lchov birliklarida ifoda qilingan mablag'larni pul ifodasida aks ettirib takror ishlab chiqarishni ta'minlashga aytiladi.

Buxgalteriya hisobi predmetiga professor M. Umarova, O'. Eliboyev, K. Ahmadjonovlar tomonidan tayyorlangan

¹ M. Ostonaqulov. „Buxgalteriya hisobi nazariyasi“. Toshkent, „O'zbekiston“, 1993, 33-bet.

darslikda: „Xo‘jalik mablag‘larining tarkibi, tashkil topish manbalari, ulardan oqilona foydalanish hamda berilgan reja topshiriqlarini bajarish jarayonida yuz beradigan xo‘jalik jarayonlari buxgalteriya hisobining predmeti hisoblanadi“¹ deb ko‘rsatilgan. Berilgan ta‘rif bizning nazarimizda buxgalteriya hisobi predmetiga buxgalteriya hisobi usullari bilan bog‘langan holda berilgandir.

Buxgalteriya hisobini o‘rganishda korxonalarining o‘z mablag‘lari hamda qarzga olingan mablag‘lar turlari joylanishi va tashkil topish manbalari bo‘yicha ifoda etiladi. Korxonada moliyaviy natijalarini aniqlash uchun imkoniyat yaratiladi.

3-§. Buxgalteriya hisobining usullari va uning elementlari

Buxgalteriya hisobi o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, oldidagi vazifalarni to‘la-to‘kis yechib berish uchun maxsus usullarni o‘z ichiga oladi va bu usullar yordamida buxgalteriya hisobi maxsus fan sifatida o‘rganiladi. Buxgalteriya hisobida, asosan, quyidagi usullardan foydalaniladi:

- hujjatlashtirish;
- inventarizatsiya;
- baholash va kalkulyatsiya;
- ikki yoqlama yozuv va schotlar;
- balans va hisobot.

Hujjatlashtirish — bu buxgalteriya hisobida mablag‘lar harakatini belgilovchi, unga qonuniy kuch beruvchi jarayondir. Hujjatlashtirish yordamida amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalarini tartibga solish uchun asos yaratiladi. Hujjatlarga asosan mablag‘lar harakatini tasdiqlovchi huquqiy asos yaratadi.

Inventarizatsiya —(yo‘qlama) qilish yordamida tegishli

¹ M. Umarova. va boshqalar. „Buxgalteriya hisobi“. Toshkent, „Mehnat“, 1999.

moddiy boyliklarning to'liqligi nazorat qilinadi. Moddiy javobgar shaxs belgilangan muddatlarda korxonada buxgalteriyasiga o'z hisobotini topshiradi, unda hisobot davrida tovar va moddiy boyliklar holatidagi o'zgarishlar o'z ifodasini topadi. Inventarizatsiya o'tkazish tartibi natijalarini aniqlash me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingandir.

Baholash va kalkulyatsiya — korxonada va tashkilotlardagi mavjud mablag'lar harakati buxgalteriya hisobida ifodalanadi, mahsulot ishlab chiqarishda sarf qilingan xarajatlar o'rganiladi, baholash va kalkulyatsiya alohida ahamiyatlidir. Mablag'lar harakatini o'rganish, asosan, pul o'lchov birligida yuritilishini hisobga olgan holda baholash pul ifodasida yuritiladi.

Ikki yoqlama yozuv va schotlar — buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlaridan biri amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari tegishli schotlarda ikki yoqlama yozuv bilan ko'rsatiladi. Har bir amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiyasidan birining ko'payishi ikkinchisining ozayishiga olib keladi. Korxonada mablag'larining holatini o'rganishda u yoki bu mablag'ga bo'lgan talabni aniqlashda schot ko'rsatkichlari asos uchun o'rganiladi. Amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini tegishli schotlarda ikki yoqlama yozuv bilan rasmiylashtirish hujjatlarga asoslangan holda olib boriladi.

Buxgalteriya hisobi schotlarini yuritishdan asosiy maqsad, hujjatlardan kerakli joyda umumlashtirilgan ma'lumotlarni tayyor holda olish mumkin.

O'z navbatida, schotlar ikki guruhga, ya'ni xo'jalik mablag'larining joylanishini ko'rsatuvchi schotlarga va xo'jalik mablag'larining manbalarini hisobga oluvchi schotlarga bo'linadi.

Balans va hisobot. Korxonada va tashkilotlar mulk shaklidan qat'i nazar, mavjud asosiy va aylanma mablag'lari holatini doimo nazorat qilib borishlari kerak. Buxgalteriya balansida xo'jalik mablag'lari joylanishi va tashkil topish manbalari ma'lum muddatga pul ifodasida ko'r-

satiladi. Xo'jalik mablag'lari balansda aks ettirish nuqtayi nazaridan ikkiga bo'linadi:

1. Xo'jalik mablag'larining joylanishini ko'rsatuvchi tomon (balansning «aktiv» tomoni).

2. Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalarini ko'rsatuvchi tomon (balansning «passiv» tomoni).

Buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomonlari ham, o'z navbatida, belgilangan bo'limlardan iboratdir. Hozirgi xalq xo'jaligi tarmoqlarida joriy qilingan korxonalar balans tuzilishi quyidagicha:

KORXONA BALANSI
_____200..._____yilga

| Aktiv tomon bo'limlari | Summa | Passiv tomon bo'limlari | Summa |
|---------------------------|-------|------------------------------|-------|
| 1. Uzoq muddatli aktivlar | | 1. O'z mablag'lari manbalari | |
| 2. Oborot aktivlar | | 2. Majburiyatlar | |

BALANSI

BALANSI

Buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomoni, o'z navbatida, ikki bo'limdan tashkil topgan. Har bir bo'lim o'z ichiga tegishli balans moddalarini oladi. Balans yordamida korxonalar mablag'larining holati, ularning joylanish va tashkil topish manbalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi.


Buxgalteriya balansini tuzish tarkibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Har bir korxonalar va tashkilotlardagi mablag'lar holati ma'lum bir ishlab chiqarish jarayonida pullik bir shakldan ikkinchi bir shaklga o'tsa, ikkinchi bir mablag' o'z qiymatini asta-sekinlik bilan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga o'tkazib beradi. Misol uchun asosiy vositalarni olaylik, ular uzoq vaqt takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarishda ishtirok etib, o'zining boshlang'ich qiymatini asta-sekin

eskirishini hisoblash yo'li bilan mahsulot tannarxiga o'tkazib boradi. Aylanma mablag'lar esa bir ishlab chiqarish jarayonida o'z qiymatini yangidan yaratilgan mahsulotga to'liq o'tkazib boradi.

Korxonada mablag'larining o'zgarishiga, *birinchidan*, mablag' bilan ta'minlash darajasi ta'sir qilsa, *ikkinchidan*, uning tashkiliy tuzilishi ta'sir qiladi. Mablag'lar holatidagi o'zgarish, o'z navbatida, xo'jalik mablag'larining joylanishiga va ularning tashkil topish manbalariga ham bog'liqdir. Buxgalteriya hisobida korxonaga taalluqli bo'lgan mablag'lar holati ularning turlari bo'yicha natural va pul o'lchov birliklarida hisob-kitob qilinadi. Buning uchun buxgalteriya hisobi schotlaridan foydalaniladi. Har bir schotda bir turli mablag'lar harakati hisobga olinadi.

Misol uchun: «Kassa» schotini olaylik, bu schotda faqat kassadagi pul mablag'larining harakati, ya'ni kirim-chiqim hisobga olinadi. Boshqa pul mablag'larining harakati «Kassa» schotida ko'rsatilmaydi.

Har bir schot ikki tomondan tashkil topgan. Schotning tuzilishi quyidagicha:



O'z navbatida, schotlar sintetik va analitik schotlarga bo'linadi. Sintetik schotlarda mablag'larning harakati faqat pul o'lchov birliklarida ko'rsatilsa, analitik schotlarda mablag'ning nomi, o'lchov birligi, miqdori va summasi ko'rsatiladi.

4-§. O'zbekiston Respublikasida milliy buxgalteriya standartlari

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi bilan xalqning asrlar davomidagi orzusi amalga oshdi. O'tgan qisqa vaqtda Mustaqil O'zbekiston har tomonlama

iqtisodiy islohotlarni ishlab chiqish, uni hayotga tatbiq qilish bilan dunyo davlatlari o'rtasida o'z iqtisodiy-sotsial tamoyillari bilan faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika miqyosida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bevosita Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil asosida olib borilmoqda. Iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish har bir sohada bozor iqtisodiyoti talablari asosida faoliyat ko'rsatishni, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni talab qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni bevosita mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, mulkka bo'lgan munosabatning o'zgarishi bilan bog'liq holda olib borildi, axborot tizimiga bo'lgan munosabat o'zgardi.

Axborotlar yig'ish, ularni qayta ishlash, mavjud tovar va moddiy qiymatlar to'liqligini ta'minlashda, mablag'lar harakatini tartibga solishda buxgalteriya hisobi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bir iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o'tish buxgalteriya hisobida tegishli o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar respublika miqyosida buxgalteriya hisobi holatining milliy standartlarini ishlab chiqishni talab qildi. Bu talabni bajarish uchun respublikamizda „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“ Qonun, „Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi tarkibiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi haqida“ Nizom, „Auditorlik faoliyati to'g'risida“ Qonun, „Buxgalteriya hisobi schotlari rejasi“ qabul qilindi. Demak, mustaqillik sharofati bilan mustaqil yurtning mustaqil jahon andozalari talablariga javob bera oladigan Mustaqillik buxgalteriyasi shakllandi. Endigi vazifa xalqaro standartlarga mos holatda faoliyatni tashkil qilishdir.

Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda 2010- yil 1- yanvar holatiga 23 ta buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) qabul qilindi.

BHMS № 0 „Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asoslar“ standartidir. Ushbu standartga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, ya‘ni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini tartibga soluvchi davlat organiga buxgalteriya hisobi milliy standartlarini takomillashtirish va ularni qayta ko‘rib chiqish vakolatini beradi.

BHMS №1 „Hisob siyosati va moliyaviy hisobot“. Bu standart mulk shaklidan qat‘i nazar (bank, budjet va sug‘urta tashkilotlari bundan mustasno) barcha xo‘jalik subyektlari o‘zining hisob siyosatini ishlab chiqish haqidadir. Hisob siyosati deb buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish uchun korxonalar rahbariyati tomonidan qo‘llaniladigan *usullar yig‘indisi* ga aytiladi.

Korxonada ishlab chiqilgan hisob siyosatiga o‘zgartirishlar faqatgina O‘zbekiston Respublikasida amaldagi Qonunlarga o‘zgartirishlar kiritilganda, hisob tizimida o‘zgarishlar olib borilganda yoki mulkdorlarning o‘zgartirilishi bilan amalga oshirilishi mumkin.

BHMS №3 — bu „Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot“ standarti bo‘lib, unda faoliyatdan olingan daromad va zararlar moddalari ko‘rsatib beriladi. Standart mulk shaklidan qat‘i nazar xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlashda qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobi milliy standartlarining 4- bandi „Tovar va moddiy zaxiralari“ga bag‘ishlangan. Unda tovar moddiy zaxiralari baholash tartibi, xarajat turlari o‘z ifodasini topgan. Uzoq muddatli aktivlarning tarkibini hisobga olish turlari buxgalteriya hisobi milliy standartlarining 5, 7, 12- § larida yoritilgan. Uzoq muddatli aktivlarga asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar kiradi.



TEST SAVOLLARI

1. Buxgalteriya hisobini yuritish, tashkil qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar bormi?
A) bor; B) yo'q;
C) tuzilmoqda; D) tasdiqlanmagan;
E) faqat andoza bor.
2. Buxgalteriya hisobining usuli qancha?
A) 1; B) 5; C) 2;
D) 4; E) 3.
3. Baho va tannarx buxgalteriya hisobining usuli hisoblanadimi?
A) yo'q; B) hisoblanadi;
C) bilmayman; D) faqat tannarx;
E) faqat balans.
4. Hujjatlashtirish va inventarizatsiya buxgalteriya hisobining usuli hisoblanadimi?
A) faqat schotlar;
B) faqat ikki yoqlama yozuv;
C) faqat balans;
D) hisoblanadi;
E) hisoblanmaydi.
5. Buxgalteriya hisoboti buxgalteriya hisobi usuli hisoblanadimi?
A) yo'q; B) hisoblanadi;
C) bilmayman; D) faqat balans, tannarx;
E) hujjatlashtirish.
6. Buxgalteriya hisobi usullariga nimalar kiradi?
A) schotlar va ikki yoqlama yozuv, hisobot, baho va tannarx, hujjatlashtirish, inventarizatsiya;
B) o'lchov birliklari, aylanma vedomostlar;
C) buyruqlar, farmoyishlar;
D) e'lonlar, analitik schotlar;
E) bilmayman.

7. Aylanma vedomostlar tuzish uchun ma'lumotlar nimalardan olinadi?

- A) balansdan;
- B) buyruqdan;
- C) o'lchov birligidan;
- D) schotlardan;
- E) hujjatlardan.

8. Schotlar qaysi tomonlardan tashkil topgan?

- A) kirim, chiqimdan;
- B) debet va kreditdan;
- C) balansdan;
- D) ikki yoqlama yozuvdan;
- E) hujjatlardan.

9. Aktiv schotlarda nimalar ko'rsatiladi?

- A) majburiyatlar;
- B) qarzlar;
- C) asosiy vositalar;
- D) mablag'larning joylanishi;
- E) manbalarning kamayishi.

10. Passiv schotlarda nimalar ko'rsatiladi?

- A) pul mablag'larining kirimi;
- B) pul mablag'larining chiqimi;
- C) korxonalar mablag'larining tashkil topish manbalari;
- D) manbalarning nomi;
- E) tovarlar.

11. Aylanma vedomostni tuzish uchun ma'lumotlar qayerdan olinadi?

- A) schotlardan;
- B) operativ ma'lumotlardan;
- C) balansdan;
- D) tannarxdan;
- E) statistik hisobdan.

12. Aktiv schotlarda mablag'larning ko'payishi schotning qaysi tomonlarida ko'rsatiladi?

- A) passivida;
- B) balansdan tashqarida;
- C) aktivida;
- D) debetida;
- E) kreditida.

13. Passiv schotlarda mablag'larning ko'payishi schotning qaysi tomonlarida ko'rsatiladi?

- A) schotlarda; | B) passivida; | C) kreditida;
D) aktivida; | E) balansda. |



III BOB. BUXGALTERIYA BALANSI

1-§. Buxgalteriya balansi to'g'risida tushuncha

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish mulk samaradorligi bilan bog'liqdir. Har bir mulk egasi o'z faoliyati davomida korxonada ichidagi va undan tashqarida bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni olib boradi.

Amalgaga oshirilgan har bir iqtisodiy munosabat mulk harakati bilan o'lchanadi va tartibga solinadi.

Mulk egasining o'z mulkiga bo'lgan munosabati, birinchi navbatda, uning to'liqligini ta'minlash, mulkning joylanishi, tashkil topish manbalari bilan o'lchanadi.

Balans yordamida mulk va uning tashkil topish manbalari tahlil qilinib, tegishli mablag'ga bo'lgan talab o'rganiladi. Balans so'zi muvozanat, ikki tomonning tengligi ma'nosini bildiradi.

Lekin iqtisodiy tushuncha bilan balansga ta'rif berishda mablag'lar harakati bilan mulkiy munosabatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Korxonada va tashkilotlarda xo'jalik faoliyatini boshqarish korxonada mablag'larining holatiga, ulardan foydalanish darajasiga, mablag'larning aylanish tezligiga bog'liqdir. Iqtisodiy jihatdan olganda balansni xo'jalik mablag'larining joylanishi va tashkil topish manbalari bo'yicha bir-biriga tengligini ta'minlaydi, deb aytish maqsadga muvofiqdir.

Mablag'lar holatidagi o'zgarishlar ularning turlari bo'yicha buxgalteriya hisobi schotlarida o'z ifodasini topadi

va har oyning oxirida har bir mablag'ning oy davomidagi o'zgarishi, oy oxiriga bo'lgan qoldig'i hisob-kitob qilinadi. Demak, buxgalteriya hisobi schotlari mablag' turlari bo'yicha mulk egasiga yetarli ma'lumotlarni beradi. Lekin bu ma'lumotda mablag'larning joylanishi ularning moddiy javobgar shaxslar bo'yicha taqsimlanganligini ko'rsatib beradi, ammo ularning qaysi manbalar hisobiga tashkil qilinishi ham mulkdor uchun zarurdir.

Korxonalar va tashkilotlar mulk shaklidan qat'i nazar tegishli faoliyat ko'rsatish jarayonida turli manbalardan foydalanadilar va bu mablag'lar holati ishlab chiqarish jarayonida bir turdan ikkinchi bir turga aylanadi. Buxgalteriya hisobida har bir mablag'ning harakati uning turlari bo'yicha hisob-kitob qilinadi va hisobot davrining oxirida mablag'lar holati bo'yicha to'liq ma'lumot olish imkonini beradi. Buxgalteriya hisobida ifoda qilingan mablag'lar harakati bo'yicha mablag'larning joylanishi va tashkil topish ma'lumotlarini umumlashtirish maqsadida balans tuziladi.

Balans yordamida, *birinchidan*, korxonalar va tashkilotning o'ziga taalluqli mablag'lari, qarzga olingan mablag'lari, vaqtinchalik foydalanishga olingan mablag'lari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish mumkin, *ikkinchidan*, balans mablag'lar holatini nazorat qilish imkoniyatini bersa, *uchinchidan* mablag' turlarini o'rganish uchun asos bo'ladi.

Korxonalar va tashkilot mablag'larini joylanishi va tashkil topish manbalari bo'yicha o'rganishda balans alohida ahamiyatlidir. Buxgalteriya balansi yordamida korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatining iqtisodiy holatini baholash imkoniyati yaratiladi.

Buxgalteriya balansini tuzish, undagi iqtisodiy ma'lumotlarni umumlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi va tartibga solinadi. Buxgalteriya balansida korxonalar va tashkilotlarning mablag'lari joylanishi va tashkil topish manbalari bo'yicha tartibga solinadi.

Demak, buxgalteriya balansi yordamida korxon va tashkilot tasarrufida bo'lgan mablag'lar harakati ikki jihat bo'yicha, ya'ni mablag'larning joylanishi va ularning tashkil topish manbalari bo'yicha taqqoslagan holda o'rganiladi. Buxgalteriya balansining ikki tomoni bo'lib, uning chap tomoni *aktiv*, o'ng tomoni esa *passiv* deb ataladi. Buxgalteriya balansining tuzilishini quyidagi chizmada ko'rish mumkin.

| Buxgalteriya balansi | |
|-------------------------------------|---|
| Aktiv | Passiv |
| Xo'jalik mablag'larining joylanishi | Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalari |

Buxgalteriya balansi yordamida korxon mablag'lari-ning joylanishi va uning tashkil topish manbalarining bir-biriga tengligi ta'minlanadi. Ya'ni balans summasi aktiv va passiv tomonlari bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Buxgalteriya balansi 60- yillarda aktiv va passiv tomonlari bo'yicha besh bo'limdan tashkil topgan bo'lsa, 80-yillarda 3 bo'limdan va hozirgi paytda ikki bo'limdan iboratdir.

Buxgalteriya balansi aktiv tomoni quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

- 1-bo'lim: uzoq muddatli aktivlar;
- 2-bo'lim: oborot aktivlari.

Passiv tomoni ham, o'z navbatida, ikki bo'limdan tashkil topgan:

- 1-bo'lim: o'z mablag'larining manbalari;
- 2-bo'lim: majburiyatlar.

Buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomoni bo'limlari o'z ichiga bir necha moddalarni oladi. Misol uchun, aktiv tomonning birinchi bo'limi quyidagi moddalardan tashkil topgan.

- 1-bo'lim. Uzoq muddatli aktivlar:
 - a) asosiy vositalar;
 - b) asosiy vositalarning eskirishi;

- d) qoldiq qiymati;
- e) nomoddiy aktivlar;

.....

.....

.....

- f) boshqa aktivlar.

Buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomonlari bo'limlarining tegishli moddalarni o'z ichiga olishi mablag'larni guruhlariga to'g'ri ajratish imkonini beradi.

Buxgalteriya balansi va uning bo'limlari, moddalari yordamida turli o'lchov birliklarida aks ettirilgan mablag'larni yagona o'lchov birligida ifoda etish uchun sharoit yaratiladi.

Har bir korxonada va tashkilot mulk shaklidan qat'i nazar o'z faoliyatini tuzilgan Nizom asosida olib borishni maqsad qilgan holda faoliyat ko'rsatadi. Tuzilgan Nizom va ta'asis hujjatlari hokimlik tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab yuridik shaxs sifatida faoliyat olib borish uchun bankda o'z hisob-kitob schotiga ega bo'lishi kerak. Bankda o'z hisob raqamiga ega bo'lishi uchun korxonada kirish balansini tuzib, bankka topshirishini talab qilish kerak. Kirish balansida ustav sarmoyasi, pul mablag'lari yoki boshqa turdagi mulklarning joylanishi va tashkil topish manbalari ko'rsatiladi.

Korxonada va tashkilot o'z faoliyatini boshlab, tegishli moliya-xo'jalik yili bo'yicha yakunlovchi balans tuzadi. Yakunlovchi balans, asosan, hisobot yili yakunlari, chorak, to'qqiz oy, yarim yil oraliqlarida tuzilishi belgilangan.

Yakunlovchi balans korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlanganligini ko'rsatish maqsadida tuziladi.

Tugatilish balansi korxonada o'z faoliyatini to'xtatgan sanada tuziladi. Tugatilish balansining boshqa balanslardan farqi shundaki, u tugatilish komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi.

Amalda qo'llanilayotgan buxgalteriya balansining ko'rinishi (shakli) quyidagicha (Amaldagi balans shakli

1997- yil 15- yanvarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan).

2000- yildan yil (chorak)lik hisobot uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997- yil 15- yanvardagi 5-son buyrug'i bilan tasdiqlangan

BUXGALTERIYA BALANSI

_____ 2000- yilga
 Korxonalar, tashkilotlar _____
 _____ OKUD bo'yicha
 1-shakl
 Sana (yil, oy, kun)
 Tarmoq (faoliyat turi) _____ OKPO bo'yicha)
 _____ OKHX bo'yicha
 Davlat mulkini boshqarish organi OKPO bo'yicha
 _____ Nazoratdagi miqdor

| | | |
|---------|--|--|
| Kodlar | | |
| 0710001 | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

O'lchov birligi, ming so'm _____
 _____ Jo'natilgan sana _____
 _____ Qabul qilingan sana _____
 _____ Topshirilgan muddat _____

| Ko'rsatkichlarning nomi | Satr kodlari | Hisobot yili boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|--------------|----------------------|-----------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. Uzoq muddatli aktivlar | | | |
| <i>Asosiy vositalar.</i> | | | |
| Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymat (01,03) | 010 | 38983 | 44249 |
| Eskirish (02) | 011 | 6212 | 7278 |
| Qoldiq qiymat 010—011 | 012 | 92771 | 36972 |
| <i>Nomoddiy aktivlar.</i> | | | |
| Boshlang'ich qiymat | 020 | | |
| Eskirish | 021 | | |
| Qoldiq qiymat 020—021 | 022 | | |
| Kapital qo'yilmalar (07,08) | 030 | 2855 | 6795 |
| Sho'ba korxonalaridagi aksiyalar (06) | 040 | | |

| 1 | 2 | 3 | 4 |
|--|-----|-------|--------|
| Sho'ba korxonalariga berilgan qarzlari (06) | 050 | | |
| Uyushma korxonalaridagi aksiyalar (06) | 060 | | |
| Uyushma korxonalariga berilgan qarzlari (06) | 070 | | |
| Uzoq muddatli investitsiyalar (06) | 080 | | |
| Boshqa qarzlari (06) | 090 | | |
| Boshqa aktivlar (06) | 100 | | |
| I bo'lim bo'yicha jami 012+022+030+040+050+060+070+080+090+100 | 110 | 35626 | 43766 |
| Oborot aktivlari | | | |
| Ishlab chiqarish zaxiralari (10,11,12,13,15,16) | 120 | 4194 | 11229 |
| Tugallanmagan ishlab chiqarish (20,21,23,29) | 130 | 380 | 282 |
| Tayyor mahsulot (40) | 140 | | |
| Olib sotiladigan tovarlar (41-42) | 150 | 32443 | 3729 |
| Kelgusi davr sarflari (31) | 160 | 911 | 867 |
| Pul mablag'lari (51,55,56,57) | 170 | 3261 | 538 |
| Valuta mablag'lari (50, 52, 55, 56, 57) | 180 | | |
| G'aznadagi pul mablag'lari (50) | 190 | 5 | 1 |
| Qisqa muddatli qo'yilmalar (58) | 200 | | |
| Sotib olingan xususiy aksiyalar (56) | 210 | | |
| Debitorlar: | | | |
| — xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar (09, 45, 62-82) | 220 | 2699 | 6212 |
| — bo'nak (avans) to'lovlari (61) | 230 | | |
| — budjet bilan hisoblashishlar (68, 19) | 240 | 4 | 854 |
| — xodimlar bilan hisoblashishlar (73) | 250 | | |
| — sho'ba korxonalarini bilan hisoblashishlar (78) | 260 | 109 | 1101 |
| — uyushma korxonalarini bilan hisoblashishlar (79) | 270 | | |
| — ta'sischi bilan hisoblashishlar (75) | 280 | | |
| — boshqa debitorlar (63, 71, 76) | 290 | | |
| II bo'lim bo'yicha jami 120+130+140+150+160+170+180+190+200+ +210+220+230+240+250+260+270+280+290 | 300 | 43968 | 57389 |
| <i>balansning aktivini bo'yicha JAMI 110+300</i> | 310 | 79594 | 101155 |
| PASSIV | | | |
| O'zlik mablag'larning manbalari | | | |
| Ustav kapitali (85/1) | 320 | 11943 | 11943 |
| Qo'shilgan kapital (85/2) | 330 | 87 | |
| Rezerv kapitali (85/3) | 340 | 5987 | 10166 |
| Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (87) | 350 | 10776 | 11637 |

| 1 | 2 | 3 | 4 |
|--|------------|--------------|---------------|
| Maqsadli tushum va fondlar (96, 88) | 360 | 1284 | 4088 |
| Kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar (89) | 370 | 2339 | 1921 |
| Kelgusi davr daromadlari (83) | 380 | 4472 | |
| I bo'lim bo'yicha jami 320+330+340+350+360+370+380 | 390 | 34549 | 39755 |
| Majburiyatlar | | | |
| Uzoq muddatli qarzarlar (95, 97) | 400 | 2196 | 2120 |
| Uzoq muddatli kreditlar (92) | 410 | | |
| Qisqa muddatli qarzarlar (93, 94, 97) | 420 | 3765 | 4372 |
| Qisqa muddatli kreditlar (90) | 430 | 3745 | 14500 |
| Xaridor va buyurtmachilardan olingan (schotlarga kelib tushgan) bo'naklar (64) | 440 | | |
| — mol yetkazib beruvchilar (60) | 450 | 23826 | 24034 |
| — budget bo'yicha qarzarlar (68) | 460 | 2599 | 2602 |
| — mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzarlar (70/1, 70/2) | 470 | 1479 | 1945 |
| — ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzarlar (69) | 480 | 3341 | 3787 |
| — mulkiy va shaxsiy sug'urtalar bo'yicha qarzarlar (65) | 490 | | |
| — budgetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzarlar (67) | 500 | 1631 | 1920 |
| — sho'ba korxonalariga qarzarlar (78) | 510 | 183 | |
| — uyushma korxonalariga qarzarlar (78) | 520 | | |
| — boshqa kreditorlar (75/1, 71/2, 73,76/1,79) | 530 | 2280 | 6120 |
| II bo'lim bo'yicha jami 400+410+420+430+440+450+460+470+480+ +490+500+510+520+530 | 540 | 45045 | 61400 |
| Balansning passiv bo'yicha JAMI 390+540 | 550 | 79594 | 101155 |

Rahbar _____ Bosh buxgalter _____

2-§. Buxgalteriya balansini tuzish uchun ma'lumotlarni tayyorlash

Korxonada va tashkilotlarning xo'jalik-moliyaviy holati ishlab chiqarish, sotish, ta'minot jarayonlari bilan bog'liq holda tashkil qilinadi. Har bir jarayonda korxonaga taalluqli bo'lgan mablag'lar harakatida tegishli o'zgarishlar amalga oshirilib, hisobot davrining oxiriga umumlashtirishni talab qiladi. Korxonada mablag'larining holati, ularning to'liqligi, moddiy javobgar shaxslar bo'yicha taqsimlanganligi, tegishli hisob ko'rsatkichlarida, moddiy javobgar shaxs-

larning hisobotlarida ko'rsatiladi, lekin bu ko'rsatkichlar mablag'lar holati bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotni ko'rsatmaydi, balki ularning turlari bo'yicha, miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot berishi mumkin.

Korxonada mablag'larining umumlashtirilgan holatdagi ma'lumoti mablag'larning joylanishi va ularning tashkil topish manbalari bo'yicha holati buxgalteriya balansida yordamida o'rganiladi, balansda barcha iqtisodiy ko'rsatkichlar pul o'lchov birligida ko'rsatiladi.

Buxgalteriya balansini tuzish uchun maxsus tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Bunday tayyorgarlik ishlariga mablag'lar to'liqligini ta'minlash maqsadida, *birinchidan*, inventarizatsiya o'tkazish va uning natijalarini tahlil qilish, ularni tegishli hisob yozuvlarida aks ettirish talab qilinsa, *ikkinchidan*, hisobot yilidagi xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligini nazorat qilish talab qilinadi, *uchinchidan*, hisobot davrining oxiriga barcha sintetik va analitik schotlardagi yozuvlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash va har bir schotning oylik oborotini, oxirgi qoldiq summasini aniqlash talab qilinadi.

Bu vazifani bajarish uchun mablag'lar harakatini hisobga oluvchi schotlarning boshlang'ich qoldiqlari, oyning oborotlari va qoldiqlari hisob-kitob qilinadi. Har bir sintetik schotning ko'rsatkichlari analitik schot ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib, ularning o'zaro tengligi ta'minlanadi.

Buxgalteriya hisobida har bir schot bo'yicha maxsus jurnal-orderlar yuritiladi, balans tuzishda ulardagi yozuvlar oy oxirida hisob-kitob qilinib, har bir jurnal-orderning ma'lumotlari hisoblab chiqiladi.

Buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan ayrim ma'lumotni bevosita korxonaning o'zidagi ma'lumotlarga asoslanib, davlat tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlarga asosan aniqlash talab qilinadi va aniqlangan summalarga tegishli buxgalteriya yozuvlari yoziladi. Bunga misol qilib hisobot davri uchun asosiy vositalarga *eskirish* hisoblashni keltirish mumkin.

Korxonada bo'yicha asosiy vositalar summasi davlat tomonidan belgilangan, eskirish me'yorlari tasdiqlangan, faqat summalarini hisob-kitob qilish yo'li bilan balansga tayyorgarlik ko'riladi.

Balans tuzish uchun sintetik schotlar bilan analitik schotlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash balans ma'lumotlarining aniqligini oshiradi. Shu munosabat bilan balans moddalarida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar ularning o'zaro bog'liqligi bo'yicha ham o'rganiladi.

Buxgalteriya hisobidagi ma'lumotlarni balansga tayyorlash davrida birinchi bor sintetik va analitik schotlar bo'yicha oborot vedomosti tuziladi, ularning boshlang'ich qoldiqlari, oylik oborotlari, oy oxiriga qoldiqlari debet va kredit tomonlari bo'yicha bir-biriga tengligi ta'minlangandan keyin bu ma'lumotlar bosh daftarga ko'chiriladi.

Bosh daftardagi har bir schotning qoldig'i balansning tegishli moddalarida ko'rsatiladi.

3-§. Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida buxgalteriya balansida ro'y beradigan o'zgarishlar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z mablag'larining to'liqligini ta'minlash bilan birga xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarning mablag'lar holatiga ta'sirini ham nazorat qilib borishi kerak.

Mablag'lar holatidagi har bir o'zgarish mulk egasining u yoki bu mablag'ga bo'lgan ehtiyojini aniqlash imkonini beradi. Xo'jalik faoliyati davomida amalga oshirilgan har bir operatsiya, o'z navbatida, mablag'lar holatiga o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Buxgalteriya balansida shunday o'zgarishlar amalga oshiriladiki, ular bir vaqtda mablag'larning joylanishi va tashkil topish manbalarining o'zgarishiga olib kelsa, ikkinchi bir o'zgarish bir turli mablag'larning o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi.

Buxgalteriya balansida xo'jalik operatsiyalari ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlarni aniqlashdan asosiy maqsad, *birinchidan*, mablag'lar to'liqligini nazorat qilish

bo'lsa, *ikkinchidan*, ularning turlari bo'yicha mulk egasini xabardor qilishdir.

Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida balansda ro'y beradigan o'zgarishlarni to'rt xildagi o'zgarishga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi o'zgarishga, buxgalteriya balansining bevosita bo'limidagi o'zgarishni ko'rsatish mumkin, bu o'zgarish jami balans summasining o'zgarishiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi, faqat bevosita bo'lim ichidagi balans moddalarining o'zaro o'zgarishiga olib keladi. Misol uchun korxonada balansidagi „Hisob-kitob“ schotidan kassaga 20000 so'm pul oldi. Bu xo'jalik muomalasi hisob-kitob schotida pulning 20000 so'mga kamayishini ko'rsatsa, bir vaqtda kassada 20000 so'm pulni ko'payganligini ko'rsatadi. Balansda hisob-kitob va kassa schotlari ikkinchi bo'limda ko'rsatilgan. Bu operatsiyaga asosan bevosita bo'limdagi mablag'lar holatida o'zgarish bo'lishi tabiiy, lekin jami balans summasi o'zgarmaydi. Demak, xo'jalik operatsiyalari ta'sirida buxgalteriya balansida bo'ladigan o'zgarish *birinchi xil* o'zgarish deyiladi.

Agar bu o'zgarishga ta'rif berib aytadigan bo'lsak, xo'jalik mablag'larining tarkibi va joylanishini aks ettiradigan, balansning aktiv tomonidagi bitta bo'limning ichida bo'ladigan o'zgarishga *birinchi xil* o'zgarish deb aytiladi. Birinchi o'zgarishda jami balans summasi o'zgarmaydi.

Misol. Hisob-kitob schotidan kassaga 20000 so'm pul olindi.

Korxonada balans

| T/r | Bo'lim va moddalar | Boshlang'ich qoldiq | O'zgarish | | Oxirgi qoldiq | Bo'limlar va moddalar | Passiv summa |
|------------------|--|---------------------|-----------|---|---------------|---|--------------|
| | | | + | - | | | |
| I a b d | Uzoq muddatli aktivlar Asosiy vositalar | 120000 | | | 120000 | 1.O'zlik mablag'larining manbalari a) Ustav kapitali | 200000 |

Davomi

| | | | | | | | |
|----|---------------------------------|--------|--------|-------|--------|---|--------|
| II | I bo'lim jami | 120000 | | | 120000 | I bo'lim jami | 200000 |
| a | Oborot aktivlar | | | | | II.Majburiyatlar | |
| b | Tovarlar | 100500 | | | 100500 | Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzarlar | 93400 |
| d | Pul mablag'lari | 72800 | | 20000 | 52800 | | |
| e | Kassadagi pul mablag'lari | 100 | 200000 | | 20100 | | |
| | II bo'lim jami | 173400 | | | 173400 | II bo'lim jami | 93400 |
| | Balansning aktivi bo'yicha jami | 293400 | 20000 | 20000 | 293400 | Balansning aktivi bo'yicha jami | 293400 |

Yuqorida keltirilgan misolimiz bo'yicha balans moddalaridagi o'zgarish balans summasining, ikkinchi bo'limdagi jami summaning o'zgarishiga olib kelmaydi. O'zgarish faqat ikkinchi bo'limning o'zida bo'ldi.

Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalarini aks ettiradigan, lekin balansning umumiy summasiga ta'sir qilmaydigan o'zgarishga ikkinchi xildagi o'zgarish deb aytiladi.

Misol. Xodimlarga hisoblangan ish haqidan 7000 so'm daromad solig'i ushlab qolindi. Bu xo'jalik operatsiyasi bo'yicha balans moddalarida quyidagicha o'zgarishga olib keladi:

Korxonalar balansi

Aktiv

| T/r | Bo'limlar va moddalar | Boshlang'ich qoldiq | O'zgarishlar | | Oxirgi qoldiq |
|-----|-----------------------|---------------------|--------------|---|---------------|
| | | | + | - | |
| | Aktiv | | | | |
| I. | Uzoq muddatli aktiv | | | | |
| a | | 120000 | | | 120000 |

| | | | | | |
|---|---|--------|-------|-------|--------|
| b | | | | | |
| d | | | | | |
| | I bo'lim jami | 120000 | | | 120000 |
| | II.Oborot aktivlari | | | | |
| a | Tovarlar | 100500 | | | 100500 |
| b | Pul mablag'lari | 72800 | | 20000 | 52800 |
| d | | | | | |
| e | Kassadagi pul mablag'lari | 100 | 20000 | | 20100 |
| | II bo'lim jami | 173400 | 20000 | 20000 | 173400 |
| | Balansning aktivi bo'yicha jami: 110+300 | 348608 | | | 345608 |
| | Balansning aktivi | 293400 | 20000 | 20000 | 293400 |

Passiv

| T/r | Bo'limlar va moddalar | Boshlan- g'ich qoldiq | O'zgarishlar | | Oxirgi qoldiq |
|-----|--|-----------------------------|--------------|------|------------------|
| | | | + | — | |
| | Passiv | | | | |
| | O'zlik mablag'larining manbalari | | | | |
| a | Ustav kapitali | 200000 | | | 200000 |
| b | | | | | |
| d | | | | | |
| | I bo'lim | 200000 | | | 200000 |
| II. | Majburiyatlar | | | | |
| a | | | | | |
| b | Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari | 93400 | | 7000 | 86400 |
| d | Budjet bo'yicha qarzlari | | 7000 | | 7000 |
| e | | | | | |

| | | | | | |
|--|---|--------|------|------|--------|
| | II bo'lim jami | 93400 | 7000 | 7000 | 93400 |
| | Balansning aktivi bo'yicha jami: 390+540 | 348608 | | | 345608 |
| | Balansning passivi bo'yicha jami | 293400 | 7000 | 7000 | 293400 |

Demak, xo'jalik operatsiyalari ta'siri balansda bo'ladigan ikkinchi o'zgarish passiv tomoni bo'limida amalga oshiriladi, jami bo'lim summasi ham, balans summasi ham o'zgarmaydi.

Xo'jalik operatsiyalari ta'siri ostida balansda bo'ladigan uchinchi o'zgarishda balansning aktiv va passiv tomonlarida summalarining ko'payishi sodir bo'ladi.

Misol. Mahsulot yetkazib beruvchilardan omborga 17000 so'mlik tovar qabul qilindi. Bu muomala ta'sirida omborlardagi tovarimiz 17000 so'mga ko'paygan bo'lsa, bir vaqtning o'zida mol yetkazib beruvchilardan shuncha summaga qarzimiz ham ko'paydi. Demak, bu muomala ta'sirida balansning aktiv va passiv tomonlarida summalarining ko'payishi kuzatiladi.

Xo'jalik muammolari ta'sirida buxgalteriya balansida bo'ladigan bunday o'zgarish uchinchi xil o'zgarish deb ataladi. Xulosa qilib aytganda, uchinchi xil o'zgarish deb, xo'jalik mablag'larining tarkibi va joylanishini aks ettiradigan, balansning aktiv tomonidagi tegishli moddalarda va shu mablag'larning manbalarini aks ettiradigan balansning passiv tomonidagi tegishli moddalarda bir vaqtda ko'payishini sodir qiladigan, shuningdek, balansning umumiy summasini ham ko'paytiradigan o'zgarishga aytiladi.

Korxonada kassadan ishchi- xizmatchilarga 20000 so'm oylik ish haqi berildi. Ushbu muomala bo'yicha kassada pul kamaygan bo'lsa, shu vaqtning o'zida, bizning ishchi va xizmatchilardan ham qarzimiz kamaydi. Ko'rinib turibdiki, balansning aktivida ham, passivida ham bu xildagi xo'jalik muomalasi ta'sirida kamayish sodir bo'ldi, shuningdek, tegishli summaga balansning umumiy summasida ham

kamayish sodir etildi. Xo'jalik muomalasi ta'siri buxgalteriya balansida sodir bo'lgan o'zgarish to'rtinchi xil o'zgarish deb ataladi.

4-§. Buxgalteriya balansini tuzish va topshirish tartibi

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyati davomida ishlab chiqarish, sotish jarayonlarini olib boradi va bu jarayonlarning o'zaro bog'liqligi mablag'lar holatida tegishli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mablag'lar holatidagi o'zgarishlarni to'g'ri baholash, ularning to'liqligini ta'minlash, *birinchidan*, xarajatlarni kamaytirish imkonini bersa, *ikkinchidan*, moliyaviy barqarorlik darajasini mustahkamlaydi.

Buxgalteriya balansini tuzishdan asosiy maqsad, *birinchidan*, mablag'lar holatini belgilangan sanaga bo'lgan o'zgarishlarini bilish bo'lsa, *ikkinchidan*, faoliyat ko'rsatish davomida ishlab chiqarishni bir me'yorda tashkil qilishni ta'minlashdir.

Buxgalteriya balansi yordamida u yoki bu mablag'ga bo'lgan talab o'rganiladi.

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar, tashkilot, muassasa O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunlarga asosan choraklik, yillik buxgalteriya hisobotini tuzadilar. Chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil topgan korxonalar yillik moliyaviy hisobot topshiradilar. Choraklik va yillik moliyaviy hisobot shakllari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997-yil 15-yanvardagi 5-son buyrug'ida korxonalarining choraklik va yillik moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish tartibi belgilangan.

Hisobotlar quyidagi shakllardan iborat.

Yillik hisobot uchun:

1. „Buxgalteriya balansi“ shakli.
2. „Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot“ shakli.

2a. „Debetorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma’lumotnoma“ shakli.

3. „Asosiy vositalarning harakati haqidagi hisobot“ shakli.

4. „Pul oqimlari haqidagi hisobot“ shakli.

5. „Xususiy kapital haqidagi hisobot“ shakli.

6. Hisobotga doir tushuntirishlar.

Yarim yillik hisobot uchun:

1. „Buxgalteriya balansi“ shakli.

2. „Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotlar“ shakli.

2a. „Debetorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma’lumotnoma“ shakli.

3. „Pul oqimlari haqidagi hisobot“ shakli.

Choraklik hisobot uchun:

1. „Buxgalteriya balansi“ shakli.

2. „Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobotlar“ shakli.

2a. „Debetorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma’lumotnoma“ shakli.

Korxonalarining (kichik korxonalardan tashqari) yillik buxgalteriya hisobotiga tushuntirish xati ilova qilinadi. Unda hisobot yilida korxonada faoliyati pirovard natijalariga ta’sir qiluvchi asosiy omillar, korxonada moliyaviy holati hamda korxonada yillik hisoboti muhokamasi bo’yicha qabul qilingan qaror va sof foydani taqsimlashi o’z aksini topadi.

Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi va hisoboti haqidagi Nizomga asosan, vazirlik o’z tuzilmasidagi korxonalar uchun Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda buxgalteriya hisobotining maxsus shakllarini yuritishlari mumkin.

Korxonalar (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalardan tashqari) yillik buxgalteriya hisobotini quyidagi tashkilotlarga topshiradilar.

1. Mulk egalari (davlat mulkini boshqarish topshirilgan tashkilotlarga, qatnashchilarga, tashkilotchilarga tashkil qilish hujjatlariga asosan).

2. Mahalliy davlat soliq nazorati tashkilotiga.
3. Mahalliy davlat statistikasi tashkilotiga.
4. Kredit shartnomalariga asosan bank tashkilotiga.
5. Amaldagi qonunlar bo'yicha korxonalar faoliyatining

alohida tomonlarini tekshirish va kerakli hisobotlarni olish yuklatilgan boshqa davlat tashkilotlariga (bunday tashkilotlarga, jumladan, budjet ajratmalari hisobiga korxonalar xarajatlarini moliyalashtiruvchi moliya tashkilotlari kiradi).

Chet el investitsiyasi ishtirokida tuzilgan korxonalar yillik buxgalteriya hisobotini korxonaning bir ishtirokchisi (mulk egasi)ga, tashkil qilish hujjatlarida ko'rsatilgan tartib bo'yicha davlat soliq nazorati tashkilotiga (korxonalar joylashgan shahardagi), davlat statistika tashkilotiga (korxonalar joylashgan shahardagi) taqdim qiladi.

Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda qatnashuvchilar bilan kelishilgan holda kerakli nazoratni amalga oshirish uchun hisobotlarga qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishi mumkin.

O'zining sho'ba korxonalariga ega bo'lgan korxonalar ushbu buxgalteriya hisobotlari bilan birga korxonalar hisobotlarini o'z ichiga oluvchi yig'ma hisobotni ham taqdim qiladilar.

Korxonalar yillik buxgalteriya hisoboti yuqorida sanab o'tilgan tashkilotlarga taqdim qilingungacha tashkil qilish hujjatlarida belgilangan tartib bo'yicha ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Xo'jalik faoliyati yakunlari haqidagi yillik buxgalteriya hisobotini qiziquvchi tashkilotlar (birjalar, xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqalar) uchun ochiq e'lon qilish mumkin.

E'lon qilinadigan hisobotning ishonchliligi mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanadi.

Buxgalteriya hisoboti shakllarida keltirilgan ko'rsatkichlar korxonada yo'qligi tufayli ular ustidan chizib qo'yiladi.

Choraklik, yillik hisobot tuzishda mulk shaklidan qat'i

nazar, davlat manfaatlariga rioya etish, xalqaro standartlarga rioya etish, amaldagi qonun va farmonlarni bajarish bilan birga buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risidagi yo'riq-nomalarga to'liq rioya qilish talab qilinadi.

Korxonada balansida o'z ifodasini topgan mablag'lar va ularning manbalari yo'qlamadan o'tkazilgan bo'lishi kerak. Buning uchun korxonada va tashkilotlardagi tovarlar va moddiy boyliklarni yo'qlama qilish va natijalarini aniqlash jadvalini to'liq bajarish kerak. Yillik va choraklik hisobotda tegishli buxgalteriya hisobidagi yozuvlarga maxsus dalolatnomasi tegishli bo'lgan korxonalar bilan o'zaro hisob-kitoblarning to'g'riligini tasdiqlovchi muqobil dalolatnomalar, tushuntirish xati ko'rsatiladi.

Yillik, choraklik hisobotni tuzish va topshirish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Buxgalteriya balansi aktiv va passiv tomonlarining har bir bo'limi turlicha manbalarni o'z ichiga oladi va pul o'lchov birligida ko'rsatiladi.

Misol uchun, buxgalteriya balansi aktiv tomonining birinchi bo'limidagi moddalarni ko'rib chiqaylik. Birinchi bo'limga asosiy vositalar (boshlang'ich qiymatda), asosiy vositalarning eskirish va ularning qoldiq qiymati, nomoddiy aktivlar, sho'ba korxonalariga berilgan uzoq muddatli investitsiyalar va boshqalar o'z ifodasini topgan.

Buxgalteriya balansini tuzish uchun asosiy ma'lumotlar bevosita schotlardan olinadi. Hisobot davrining oxirida har bir schotning oxirgi, ya'ni hisobot davri bo'yicha qoldig'i aniqlanadi, ana shu qoldiq buxgalteriya balansining tegishli moddalarida o'z ifodasini topadi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misolni ko'rib chiqamiz.

1. Hisobot davrining «Asosiy vositalar» schotining qoldig'i 1.01.200__ yil holatiga — 150000 so'm.

2. Asosiy vositalarning eskirish schotining 1.01.200__ yil qoldig'i — 40000 so'm.

3. Yanvar oyida 30000 so'mlik asosiy vosita dalolatnomaga asosan qabul qilindi.

4. Qabul qilingan asosiy vositalarga oylik eskirish summasi hisoblanadi — 1500 so'm.

Misolimizdan kelib chiqqan holda 1- chorak buxgalteriya balansida asosiy vositalar moddasi bo'yicha aks ettiriladigan summani aniqlab, ya'ni buxgalteriya schotlarida tegishli yozuvlarni berib aniqlaymiz. Buning uchun hisobot davrida qabul qilingan asosiy vositalarga debet «Asosiy vositalar» schoti — 30000 so'm kredit. Eskirish summasiga debet «Davr xarajatlari» kredit «Asosiy vositalarning eskirish» schoti yozuvi beriladi.

Buxgalteriya hisobi schotlar chizmasida quyidagicha ko'rsatiladi:

| Dt | 0100 | Kt | Dt | 0200 | Kt | Dt | 0410 | Kt |
|----|-------------------------------|----|----------|---------|----|----------------|----------|----|
| | Boshlang'ich qoldiq 150000 | | | 40000 | | | 2) 10000 | |
| | 1) 30000 | | | 2) 1500 | | 1500 | | |
| | Oborot 30000 | | Oborot — | 1500 | | 1500 | — | |
| | Qoldiq 180000 | | Qoldiq — | 41500 | | Qoldiq 1500 | | |

Misolimizdan kelib chiqqan holda 1- chorak balansida asosiy vositalarni quyidagicha aks ettiramiz:

| № | Ko'rsatkichlar nomi | Satr kodi | Hisobot yili boshiga | Hisobot davri oxiriga |
|---|------------------------------|-----------|----------------------|-----------------------|
| 1 | Asosiy vositalar | | | |
| | Boshlang'ich (qayta tiklash) | | | |
| | Qiyamati (01, 03) | 010 | 150000 | 18000 |
| | Eskirish (02) | 011 | 40000 | 41500 |
| | Qoldiq qiymat (010—011) | 012 | 110000 | 138500 |

Demak, balansning aktiv va passiv tomonlaridagi har bir bo'limning moddalaridagi ko'rsatkichlari buxgalteriya schotlaridan olinadi.

Buxgalteriya hisobi schotlarida o'z ifodasini topgan ma'lumotlar (summalar) hisobot davrining oxiriga har bir schot bo'yicha alohida-alohida hisoblanib, uning hisobot davridagi oylik aylanishi, oy oxiriga qoldig'i aniqlanadi. Ya'ni har bir schot bo'yicha yuritiladigan jurnal-orderdagi yozuvlar tartibga olinib, qoldig'i ko'rsatiladi. Buxgalteriya balansini hisobot davri uchun tuzish tegishli tayyorgarlik ishlaridan boshlanadi. Bunday tayyorgarlik vaqtida sintetik va analitik schotlardan yozuvlarni bir-biri bilan taqqoslash, to'g'riligini aniqlash, oylik aylanishlarini har bir schot bo'yicha hisoblab, hisobot davri oxiriga qoldiqlarni aniqlash, hisobot davridagi aylanish va qoldiqlarni bosh daftarda aks ettirish ishlari bajariladi.

Bosh daftar har bir buxgalteriya schoti bo'yicha yuritiladi, unda har bir schotning oylik aylanishi qoldig'i o'zaro schotlarning debet aylanishi bo'yicha ko'rsatiladi, kredit aylanishi umumiy summada tegishli jurnal-orderdan olinadi.

Korxonalarining xo'jalik faoliyatini o'zida aks ettirgan buxgalteriya schotlari bosh daftarda o'z aksini topgandan so'ng bosh daftar bo'yicha ham har bir schotning hisobot davridagi aylanishi schotning debet-kredit aylanishi qoldig'i ko'rsatiladi va hisobot davri bo'yicha jami bosh daftardagi aylanish, qoldiq aniqlanib, balans tuzish uchun to'liq ma'lumot yig'iladi. Bosh daftarga jami aylanish, qoldiq har oylik ko'rsatkichlari bilan yozilib yuriladi. Bosh daftardagi yozuvlar bevosita xo'jalik faoliyati bilan muammolarni, ya'ni ikki yoqlama buxgalteriya yozuvlari bilan asoslangan muammolarni o'zida ifoda etadi.

Buxgalteriya balansida ko'rsatilgan ma'lumotlar hisobotga yozilgan tushuntirish xatlarida chuqur va har tomonlama tahlil qilinib, korxonada xo'jalik faoliyatiga ta'sir qilgan omillarga va mablag'lar holatiga baho beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan Nizomga asosan tuzilgan balans yuqori

tashkilotga topshiriladi. Agar yillik buxgalteriya balansini vazirlikka topshiriladigan bo'lsa, u holda vazirlik yillik buxgalteriya balansini topshirish muddatlarini belgilab beradi. Yillik buxgalteriya balansining belgilangan muddatlarda topshirilishini ta'minlash bosh buxgalter zimmasiga yuklatiladi.



TEST SAVOLLARI

1. Balans nima?
 - A) tenglik, moslik;
 - B) ikki tomonning tengligi;
 - C) tomonlarning roziligi;
 - D) pul mablag'larining holati;
 - E) bilmayman.
2. Buxgalteriya balansining tuzilishi qanday?
 - A) ikki tomondan tuzilgan;
 - B) bir tomondan tuzilgan;
 - C) mablag'larning joylanishidan tuzilgan;
 - D) mablag'larning manbalarini ko'rsatish;
 - E) natural ko'rsatkichlarda beriladi.
3. Balansning chap va o'ng tomonlari qanday nomlangan?
 - A) aktiv va passiv; B) debet va kredit;
 - C) sintetik va analitik; D) asosiy va aylanma;
 - E) barcha javoblar to'g'ri.
4. Balansning aktiv tomonida mablag'larning nimasi ko'rsatiladi?
 - A) miqdori natural o'lchovda;
 - B) miqdori chet el valutasida;
 - C) mablag'larning joylanishi;
 - D) mablag'larning manbalari;
 - E) mablag'larning kamayishi.
5. Buxgalteriya balansining aktiv tomoni necha bo'limdan iborat?
 - A) 3; B) 5; C) 6; D) 2; E) 4.

6. Buxgalteriya balansining passiv tomoni necha bo'limdan iborat?

- A) 5; B) 3; C) 4; D) 6; E) 2.

7. Balansning aktiv tomonining ikkinchi bo'limi qanday nomlanadi?

- A) majburiyatlar; B) aylanma mablag'lar;
C) asosiy vositalar; D) pul mablag'lari;
E) qarzarlar.

8. Balansning aktiv va passiv tomonlari necha bo'limdan iborat?

- A) 2; B) 3; C) 4; D) 5; E) 1.

9. Balans tuzish uchun tegishli ma'lumotlar qayerdan olinadi?

- A) analitik schotlardan; B) jurnal-orderlardan;
C) tovar hisobotidan; D) kassir hisobotidan;
E) sintetik schotlarning qoldiqlaridan.

10. Buxgalteriya balansida mablag'lar harakati qanday o'lchov birliklarida ko'rsatiladi?

- A) tonna, kilogrammda;
B) vaqt birligida;
C) so'mda, pul o'lchov birligida;
D) chet el valutasida, so'mda;
E) barcha javoblar to'g'ri.

11. Buxgalteriya balansini tuzish to'g'risidagi Nizom kim tomonidan qabul qilingan?

- A) rahbar tomonidan;
B) Moliya vazirligi tomonidan;
C) Savdo vazirligi tomonidan;
D) bosh buxgalter tomonidan;
E) barcha javoblar to'g'ri.

12. Buxgalteriya balansining passiv tomoni ikkinchi bo'limi qanday nomlanadi?

- A) oborot mablag'lari; B) soliqlar;
C) tovarlar; D) majburiyatlar.
E) debetorlar.



IV BOB. SCHOTLAR TIZIMI VA ULARDA XO'JALIK OPERATSIYALARINI AKS ETTIRISH TARTIBI

1-§. Buxgalteriya hisobining schotlari to'g'risida tushuncha va ularning vazifalari

Korxonalar va tashkilotlar o'z xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda o'z Nizomini ishlab chiqadi va mulk egasidan unga rioya qilish talab qilinadi. Mulk egasi ishlab chiqarish, ta'minot, sotish jarayonlari bilan bog'liq holda faoliyat yuritishi davomida turli mulk egalari bilan shartnomaviy munosabatlarni amalga oshiradi va buning yordamida turli mablag'larga bo'lgan talabini qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Korxonalar va tashkilotlar mablag'larining joylashish va tashkil topish manbalari bo'yicha bir-biridan farq qiladi va bu farq mablag'larning turlari bo'yicha ham farqni keltirib chiqaradi. Korxonalar mablag'larining joylashish va tashkil topish manbalari bo'yicha birinchi ma'lumotni balans bo'lim va moddalaridan ham olish mumkin. Lekin bu ma'lumotning aniqlik darajasi faqat balans tuzilgan sanaga nisbatan to'liq bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, balans moddalarida mablag'larning harakati faqat umumlashtirilgan holda pul o'lchov birligida ko'rsatiladi.

Korxonalar faoliyatida har bir mablag'ning to'g'ri hisob-kitobini yuritish mulk egasi uchun zarurdir, chunki mablag'ning to'g'ri sarf qilinishi, birinchidan, xarajatlarni tejash uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, pul mablag'laridan unumli foydalanishni ko'rsatadi va, o'z navbatida, korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashga olib keladi.

Mulkdor o'z zimmasidagi mulkini tegishli moddiy javobgar shaxslar zimmasiga o'tkazib, ular bilan moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuzgan holda faoliyat yuritadi.

Moddiy javobgar shaxslar o'z zimmasidagi tovar va moddiy boyliklar harakatini, kirim-chiqimini hisobga olib boradilar va bu to'g'rida buxgalteriyaga hisobot berib

turadilar. Hisobot berish muddatlari korxonada va tashkilot rahbari tomonidan belgilanadi. Korxonada mablag'lari bo'yicha ma'lumotni moddiy javobgar shaxslarning hisobotlaridan ham olish mumkin, lekin hisobotlarda mablag'lar harakati alohida-alohida ko'rsatiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, mulk egasi uchun shunday ma'lumot kerakki, unga mablag'lar holati bo'yicha xohlagan sanaga yetarli ma'lumot olish imkoniyati yaratilsin. Bunday ma'lumotni buxgalteriya hisobi schotlaridan foydalangan holda olish mumkin.

Korxonada va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati mulk shaklidan qat'i nazar, turli mablag'larning harakati bilan, ulardagi o'zgarishlar bilan tartibga solinadi va to'liqligi ta'minlanadi. Bu jarayonda buxgalteriya hisobi schotlaridan foydalanish talab qilinadi. Buxgalteriya hisobi schotlari yordamida mablag'lar holatidagi o'zgarishlar, ularning kirim-chiqimi, hisobot sanasiga bo'lgan qoldig'i har bir mablag' turi bo'yicha alohida-alohida hisobga olinadi va mulk egasiga uning talabi bo'yicha xohlagan paytiga mablag'ining to'liqligi bo'yicha yetarli ma'lumot berish imkoniyati yaratiladi.

Buxgalteriya hisobi schotlari yordamida har bir mablag'ning holati, turi, bahosi, miqdori bo'yicha ma'lumot olish mumkin.

Agar mablag'larning holati moddalarda umumlashtirilgan va pul o'lchov birliklarida ko'rsatilsa, buxgalteriya hisobi schotlarida har bir mablag'ning holati — moddiy javobgar shaxslar bo'yicha ham, olish imkoniyati ham mavjuddir.

Buxgalteriya hisobi schotlarining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ularda mablag'lar harakati kunga, oyga bo'lgan o'zgarishlarini miqdoriy va pul o'lchov birliklarida ifodalashni ko'rsatadi, keyingi xususiyati mablag'lar holatini nazorat qilish istalgan sanaga balans tuzish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobi schotlarida amalga oshirilgan


xo'jalik operatsiyalari ma'lum ketma-ketlikda, uzluksiz belgilangan tartibda, hujjatlarga asoslangan holda olib boriladi.

Demak, buxgalteriya hisobi schotlarda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishda asos bo'lib, amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyasini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Har bir schot bir turli mablag'lar harakatini hisobga olish uchun belgilangandir. Bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994- yil 26- martdagi „O'zbekiston Respublikasidagi buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida“gi Nizomini tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi schotlari tizimini takomillashtirish haqida“ gi 164-sonli qaroriga asosan olib borilmoqda. Bu qarorga asosan korxonam-uassasa o'z mulki, majburiyatlari va xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobini natural o'lchovlar asosidagi pul ifodasida yollashga uzluksiz hujjatli va o'zaro bog'liq holda aks ettirish yo'li bilan yuritishga majburligi belgilangan.

Buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirilayotgan mablag'lar holatiga, joylanish va tashkil topish manbalariga qarab aktiv va passiv, aktiv — passiv, tranzit schotlarga bo'linadi.

2-§. Buxgalteriya hisobi schotlarining tuzilishi

Buxgalteriya hisobi korxonaga (mulkdorga) taalluqli bo'lgan mablag'lar harakati, joylanish va tashkil topish manbalari bo'yicha tartibga solinadi. Korxonam mablag'lari, o'z navbatida, asosiy va aylanma mablag'larga, majburiyatlarga, qarzga olingan mablag'larga bo'linadi. Mablag'larning harakati buxgalteriya hisobi schotlarida o'z ifodasini topadi. Har bir schotda turli mablag'lar harakati ikki tomondan hisobga olinadi. Uning o'ng tomoni kredit, chap tomoni esa debet deb aytiladi. O'z navbatida, schotlar aktiv, passiv, yig'ib taqsimlovchi, tranzit, balansdan tashqari schotlarga bo'linadi. Schotning tuzilishi quyidagicha:



Aktiv schotlarda xo'jalik mablag'larining joylanishi, passiv schotlarda esa xo'jalik mablag'larining manbalari ko'rsatiladi. Aktiv schotlarda boshlang'ich qoldiq debet tomonida, passiv schotlarda esa kredit tomonida ko'rsatiladi.

Buxgalteriya schotlarida korxonaga taalluqli mablag'larning harakati belgilangan ketma-ketlikda, uzluksiz, hujjatlarga asoslangan holda olib boriladi va har bir amalga oshirilayotgan xo'jalik operatsiyasi schotlarda ikki yoq-lama yozuv bilan ko'rsatiladi. Hisobot davrining oxirida har bir schotning qoldig'i, uning yillik aylanmasi hisoblanib, hisobot davrining oxirgi qoldig'i chiqariladi va bu qoldiq xo'jalik faoliyati bo'yicha balans tuzish uchun asos qilib olinadi.

Buxgalteriya hisobi schotlarida aks ettirilayotgan mablag'lar harakatida bevosita korxonaga taalluqli bo'lgan, xo'jalik mulki hisoblangan mablag'lar harakati ko'rsatiladi.

Agar mablag' bevosita korxonaga kirim qilinmagan bo'lsa, bunday mablag'larning harakati balansdan tashqaridagi schotlarda ko'rsatiladi.

Korxon va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati turli mablag'lar harakatini o'z ichiga oladi. Buxgalteriya schotlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, u mablag'lar harakatining kunlik, oylik holati bo'yicha yetarli ma'lumot beradi. Schotlarda tashkilotda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari belgilangan ketma-ketlikda, uzluksiz hujjatlarga asoslangan holda yuritiladi. Buxgalteriya schotlarining chap tomoni debet, o'ng tomoni esa kredit deb ataladi.

Buxgalteriya schotlarida aks ettirilayotgan mablag'lar holatiga, joylanishi va tashkil topish manbalariga qarab aktiv va passiv schotlarga bo'linadi.

Aktiv schotlarda xo'jalik mablag'larining joylanishi ko'rsatiladi. Aktiv schotlarda boshlang'ich qoldiq debet tomonida, mablag'larning ko'payishi ham debet tomonida, ozayishi esa kredit tomonida ko'rsatiladi.

Aktiv schotning tuzilishi quyidagicha:

| Debet | Schot „Aktiv“ | Kredit |
|-------|---|----------|
| | Boshlang'ich qoldiq 1.01 | |
| | Ko'payishi | Ozayishi |
| | Oylik oboroti | |
| | Oxirgi qoldiq: (Boshlang'ich qoldiq+ otob—r.tovar) | |

Schot tuzilishidan ko'rinib turibdiki, aktiv schotlarda boshlang'ich qoldiq debet tomonida, mablag'larning ko'payishi ham schotning debetida, mablag'larning ozayishi kredit tomonida ko'rsatiladi. Aktiv schotlar bo'yicha oxirgi qoldiq quyidagi tartibda aniqlanadi: aktiv schotning boshlang'ich qoldig'ini (Kb)ga qo'shamiz. Aktiv schotini debet oborotidan (Od) ayiramiz, kredit oborotini (Ok) schotning oy oxirida qoldig'i aniqlanadi, ya'ni KbQOdQOkqOk.

Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misolni keltiramiz.

Misol. Korxonaning bankdagi hisob-kitob schotidan kassaga pul olindi — 50000 so'm. Misolimizda qatnashayotgan „kassa“ va „hisob-kitob“ schoti aktiv schotlar hisoblanadi, shu munosabat bilan misolimizga quyidagicha buxgalteriya yozuvlari beriladi:

Debet „Kassa“ schoti — 50000 so'm.

Kredit „Hisob-kitob“ schoti — 50000 so'm.

Har ikkala schot bo'yicha oy oxiriga bo'lgan qoldiqni aniqlash uchun, birinchi navbatda, ulardagi qoldiqlarning oy boshiga bo'lgan holatini aniqlab olish kerak. „Kassa“ schotining boshlang'ich qoldig'i (oy boshiga) — 10000

so'm. „Hisob-kitob“ schotining boshlang'ich qoldig'i — 150000 so'm. Endi misolimizda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini hisobga olib, har ikkala schot bo'yicha oy oxiriga bo'lgan qoldiqlarini aniqlab chiqamiz. Buning uchun, birinchi navbatda, schotlar chizmasida boshlang'ich qoldiqlarni ifoda etamiz.

| Dt „Hisob-kitob“ schoti Kt | | Dt „Hisob-kitob“ schoti Kt | |
|----------------------------|----------|----------------------------|----------|
| Boshlang'ich qoldiq | 10 50000 | Boshlang'ich qoldiq | 10 50000 |
| | | 10 50000 | |
| Oborot | 50000 | Oborot 50000 | |
| Qoldiq 60000 | | Qoldiq 65000 | |

Schotlar chizmasida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini aks ettiramiz va har bir schotning oylik oborotlarini hisoblab chiqqandan keyin oy oxiriga bo'lgan qoldiqlarini aniqlaymiz. Har bir schot bo'yicha oy oxiridagi qoldiqni aniqlash uchun oylik oborotlarni hisoblab chiqish kerak.

Passiv schotlarda xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalari aks ettiriladi. Passiv schotlarda mablag'larning manbalarini aks ettiruvchi schotning tuzilishi quyidagicha:

| Debet | Schot „Passiv“ | Kredit |
|-----------------------------------|----------------------------------|--------|
| Mablag'lar manbalarining ozayishi | Boshlang'ich qoldiq | |
| | Mablag' manbalarining ko'payishi | |
| Oylik oboroti... | Oylik oboroti... | |
| | Oxirgi qoldiq... | |

Schotning chizmasidan ko'rinib turibdiki, passiv schotlarda ko'payish kredit tomonida, ozayishi esa debet tomonida ko'rsatiladi.

Misol. Tuzilgan shartnomaga asosan mol yetkazib

beruvchilardan kelgan tovarlar omborga qabul qilindi — 170000 so'm.

Misolimizdagi xo'jalik operatsiyasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvlari yoziladi:

Debet „Ombordagi tovarlar“ schoti —170000 so'm.

Kredit „Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar“ —170000 so'm.

Yuqoridagi berilgan buxgalteriya yozuvida 2 ta schot, ya'ni „Ombordagi tovarlar“ schoti va „Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan haq schotlari“ aks ettirilgan.

Berilgan buxgalteriya yozuvlarini schotlar chizmasida quyidagicha ifoda etamiz:

| „Ombordagi tovarlar“ schoti | | „Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan haq“ | |
|----------------------------------|----|---|----------------------|
| Dt | Kt | Dt | Kt |
| Boshlang'ich qoldiq | | | Boshlang'ich qoldiq |
| 1) 170000 | | | 1) 170000 |
| Oy oboroti 170000 | | Oy oboroti | 170000 |
| Ox.qold.620000 Ox.qold.950000 | | | Oxirgi qoldiq 950000 |

Chizmadagi yozuvlardan ma'lumki, passiv schotlar bo'yicha qoldiqni aniqlash uchun: boshlang'ich qoldiqqa qo'shamiz, kredit tomonning oborotini ayiramiz, debet tomonning oborotidan qolgan summa schotning oy oxirigacha bo'lgan qoldig'ini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-milliy andozasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyati, buxgalteriya hisobi schotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomani O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi ishlab chiqqan.

Buxgalteriya hisobining 21-milliy andozasi respublikada qabul qilingan „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“gi Qonunga

asosan ishlab chiqilgan. Qonunning 5-moddasida „*Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklanadi.*

Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan, shu jumladan, kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi“, deb ko‘rsatilgan.

21- milliy andozada „*Buxgalteriya hisobining schotlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy resurslari harakati to‘g‘risidagi buxgalteriya axborotlarini qayd qilish va saqlash usuli va unga qo‘yiladigan talablardir*“, deb ko‘rsatilgan.

O‘z navbatida, schotlarning tuzilishiga alohida ahamiyat berilgan.

Yuqorida biz faqat aktiv, passiv schotlarning tuzilishiga ahamiyat bergan bo‘lsak, endi andozada ko‘rsatilgan kontr-aktiv, kontr-passiv, tranzit va balansdan tashqari schotlarning tuzilishi bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Kontr-aktiv schot. Kontr-aktiv schot xususiy mulkdan birinchidan, aktiv schotning ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaydi, ikkinchidan, aktiv schotda mablag‘ning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig‘idan u bilan bog‘liq bo‘lgan aktiv schotning qoldig‘ini ayirish yo‘li bilan belgilanadi. Misol uchun, kontr-aktiv schotga „Asosiy vositalarning eskirish hisobi schotlari“ni, „Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasining hisobi schotlari“ni, „Arzon va tez eskiruvchi buyumlarning hisobi schoti“ ni kiritish mumkin.

„Asosiy vositalarning eskirishi hisobi schotlarida“ aks ettiriluvchi operatsiyalar bevosita asosiy vositalarning harakati bilan bog‘liqlikda olib boriladi, ya‘ni asosiy vositaning qiymatidan asosiy vositaning zohiriy summasi topiladi.

Kontr-passiv schot. Kontr-passiv schotlar passiv schotlarning ko‘payishiga qarshi turadigan schot hisoblanadi. Kontr-passiv schotlarda „Sotib olingan xususiy

aksiyalar hisobi schotlari“, „Sotilgan tovarlarning qaytarilishi schoti“ kiradi. Kontr-passiv schotlarda majburiyat yoki kapitalning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig‘i u bilan bog‘liq bo‘lgan passiv schotning qoldig‘idan ayirib tashlash yo‘li bilan topiladi.

Tranzit schotlar. Bunday schotlardan hisobot yili davomida foydalaniladi, lekin hisobot davrining oxirida tranzit schotlarda qoldiq qolmaydi. Tranzit schotlarga „Davv xarajatlari“, „Boshqa operatsiyani xarajatlash hisobi“, „Yakuniy moliyaviy natijalar hisobi schotlari“ kiradi.

Balansdan tashqari schotlar. Balansdan tashqari schotlarda mulk egasiga taalluqli bo‘lmagan, lekin vaqtinchalik undan foydalanish imkoniyati yaratilgan yoki uning to‘liq saqlanishi kafolatlangan aksiyalar ko‘rsatiladi. Bu schotning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ikki yoqlama yozuv berilmaydi, faqat bir tomonlama yozuv beriladi. Ikkinchi xususiyati balans moddalarida ko‘rsatilmaydi.

Balansdan tashqari schotlarda xo‘jalik operatsiyalarini aks ettirish uchun asos sifatida mol yetkazib beruvchilarning taklifi, to‘lov hujjatlaridan foydalaniladi.

Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misolni keltiramiz.

Misol. Mol yetkazib beruvchilar tomonidan jo‘natilgan tovarlar summasi yuk hajmiga asosan — 150000 so‘m. Kelgan tovarlar qabul qilinganda ulardan 500000 so‘mligi shartnoma shartlariga mos kelmasligi aniqlandi. Shartnoma shartiga mos kelmagan tovarlar, ya‘ni 50000 so‘mlik tovar balansidan tashqari 002 „Mas‘ul saqlashga qabul qilingan tovar moddiy qiymatliklar“ schotlarning debet tomonida ko‘rsatiladi.

3-§. Xo‘jalik operatsiyalarini schotlarda aks ettirish tartibi. Ikki yoqlama yozuv

Mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, korxonalar va tashkilotlarning xo‘jalik faoliyati bevosita mablag‘lar harakati bilan bog‘liqdir. Mablag‘lar harakatini to‘g‘ri rasmiylashtirish, hujjatlar asosida tartibga solish mulk egasining tegishli

mablag'larga bo'lgan talabini o'rganish va ularning to'liqligini ta'minlash imkonini beradi. Korxonada va tashkilotlarda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari manbalarining joylashishiga va ularning tashkil topish manbalarining o'zgarishiga olib keladi. Har bir amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyasi bir vaqtning o'zida 2 ta schotda: birinchisini debetida, ikkinchisini kreditida ko'rsatadi. Har bir schot bir turli xo'jalik manbalarining harakatini o'zida ifoda etadi. Misol uchun „Kassa“ schotini olaylik, unda kassadagi pul manbalarining harakati aks ettiriladi, ya'ni kirim-chiqim, hisob-kitob qilinadi. Kassadagi pul mablag'larining holati bo'yicha moddiy javobgar shaxs — kassir o'z hisobotini buxgalteriyaga topshiradi. Hisobotda kassada amalga oshirilgan pul manbalarining harakati ularni tasdiqlovchi hujjatlar bilan asoslangan holda ko'rsatiladi.

Demak, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlari buxgalteriya hisobotini yuritish uchun asos qilib olinadi va bu hisobotlarda ko'rsatilgan manbalarining o'zgarishi belgilangan buxgalteriya hisobi schotlarida o'z ifodasini topadi va ikki yoqlama yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi.

Buxgalteriya schotlarida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari ikki yoqlama yozish balansini tuzish bilan bog'liq holda olib boriladi. Lekin buxgalteriya schotlarida manbalarining harakati ularning turlari, tegishli o'lchov birliklarida ko'rsatilsa, buxgalteriya balansida ularni umumlashtirilgan holda ko'rsatish mumkin.

Misol uchun „Materiallar hisobi“ schotini olaylik, bu schotda materiallar xarajati hisobga olinadi. Materiallar harakatining hisob-kitobi, birinchi bor, moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarida ko'rsatiladi. Har bir javobgar shaxs o'z zimmasidagi materiallar harakati bo'yicha buxgalteriyaga hisobot beradi, ya'ni buxgalteriya schotlarida materiallar harakati turlari bo'yicha, moddiy javobgar shaxslar bo'yicha alohida-alohida hisobga olinadi, lekin balansda umumlashtirilgan holda ko'rsatiladi.

Buxgalteriya schotlarida xo'jalik operatsiyalarini ikki yoqlama yozishning yana bir xususiyati shundaki, u korxonalar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitob ishlarini to'g'ri tashkil qilish, hisoblashlarni tartibga solishni ta'minlash imkonini beradi.

Buxgalteriya schotlarida ikki yoqlama yozish usulini yanada tushunarli qilish maqsadida quyidagi misollarni keltiramiz va ularni ikki yoqlama yozish usulida ifodalaymiz.

Birinchi operatsiya. Tuzilgan vedomostga asosan kassadan ishchi va xizmatchilarga ish haqi berildi — 70000 so'm.

Bu xo'jalik operatsiyasi ta'sirida kassir zimmasidagi kassadagi pul mablag'larining kamayishi va bir vaqtning o'zida ishchi va xizmatchilarga bo'lgan ish haqi bo'yicha qarzning ham kamayishi ko'rsatiladi va buxgalteriya schotlarida quyidagicha yozuvlar bilan aks ettiriladi.

Debet „Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar“ schoti — 70000 so'm.

Kredit „Kassa“ schoti — 70000 so'm.

Ikkinchi operatsiya. Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi — 90000 so'm.

Bu xo'jalik operatsiyasining mazmuni shundaki, asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchi va xizmatchilarga ish haqi hisoblandi, bu ish haqi xarajati mahsulot tannarxiga qo'shiladi va shu xo'jalik operatsiyasi bilan ishchilarga beriladigan ish haqi yuzasidan qarzimiz ham ko'payadi. Bu operatsiyaga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet „Asosiy ishlab chiqarish“ schoti — 90000 so'm.

Kredit „Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar“ schoti — 90000 so'm.

Uchinchi operatsiya. Kassaga hisob-kitob schotidan ishchilarga ish haqi berish uchun olindi — 80000. Bu operatsiya bo'yicha 80000 so'mga kassadagi pul mablag'larining ko'payishi amalga oshirilgan bo'lsa, shu summaga hisob-kitob schotida pul mablag'lari kamayganligini

ko'rsatadi. Bu operatsiyaga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet „Kassa“ schoti — 80000.

Kredit „Hisob-kitob“ schoti — 80000.

To'rtinchi operatsiya. Mol yetkazib beruvchilardan kelgan materiallarning moddiy javobgar shaxs tomonidan omborga qabul qilinishi — 300000 so'm.

Bu operatsiya mazmuniga ko'ra, ombordagi materiallar 300000 so'mga ko'paydi va mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzimiz ham shu summaga ortdi. Bu operatsiyaga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet „Materiallar“ schoti — 300000 so'm.

Kredit „Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schotlar“ hisobi — 300000 so'm.

Beshinchi operatsiya. Asosiy ishlab chiqarishga materiallar chiqarildi — 150000 so'm. Bu operatsiya bo'yicha ombordagi materiallar kamayadi, asosiy ishlab chiqarishdagi materiallar esa ko'payadi, bu operatsiyaga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Debet „Asosiy ishlab chiqarish“ schoti — 150000 so'm.

Kredit „Materiallar“ schoti — 150000 so'm.

Yuqoridagi misollarimiz buxgalteriya hisobi schotlar chizmasida quyidagicha ko'rsatiladi:

| „Hisob-kitob“ | | | Dt „Kassa“ schoti Kt | | | „Materiallar“ | | |
|---|--------|-------|---------------------------|--------|-------|---------------|--------|--------|
| Dt | schoti | Kt | Dt | schoti | Kt | Dt | schoti | Kt |
| B.K. | 3) | 80000 | B.K. | 1) | 70000 | B.K. | 5) | 150000 |
| | | | 3) | 80000 | | 4) | 300000 | |
| „Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar“ | | | „Asosiy ishlab chiqarish“ | | | | | |
| Dt | schoti | Kt | Dt | schoti | Kt | | | |
| | | B.K. | B.K. | | | | | |
| | | 1) | 3) | 90000 | | | | |
| | | 2) | 5) | 150000 | | | | |
| | | 90000 | | | | | | |

„Mol yetkazib beruvchilar va
pudratchilarga to'lanadigan
haq“ schoti

| Dt | Kt |
|----|-----------|
| | B.K. |
| | 4) 300000 |

Buxgalteriya hisobi schotlarida ko'rsatilgan har bir buxgalteriya yozuvi hujjatlar bilan asoslangan bo'lishi shart.

4-§. Sintetik va analitik schotlar

Xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi mablag'larning holati turli-tuman bo'lib, ularning to'liqligini nazorat qilish buxgalteriya hisobi zimmasidadir. Mulkning nazorati uning turlari bo'yicha tashkil qilinishi talab qilinadi. Korxonada mulki asosan ikkiga — asosiy va aylanma mablag'larga bo'linadi. O'z navbatida, asosiy va aylanma mablag'lar ham turlari bo'yicha bo'linib ketadi. Misol uchun, aylanma mablag'larga kassadagi pul mablag'lari, materiallar, tovarlar, tayyor mahsulot va hokozolar kiradi.

Mablag'larni turlari bo'yicha hisobga olishda buxgalteriya hisobi schotlaridan foydalaniladi. Har bir schot bir turli mablag'lar harakatini hisobga olish uchun belgilangandir.

Masalan, „Kassa“ schotida faqat kassadagi pul mablag'larining kirim-chiqimi hisob-kitob qilinadi va bu to'g'rida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi.

Demak, schotlar yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlar zimmasidagi mablag'lar harakati turlari bo'yicha nazorat qilinadi. Nazorat ishlarida mablag'lar harakati o'lchov birliklari bo'yicha pul ifodasida olib boriladi.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z mablag'larining to'liqligini, undan samarali foydalanishni nazorat qilib borish maqsadida sintetik va analitik schotlardan foydalanadi. Sintetik schotlar deb, mablag'lar harakatini pul o'lchov birliklarida hisobga olib, uni umumlashtiruvchi schotlar tizimiga aytiladi.

Sintetik schotlarda ko'rsatilgan mablag'lar harakati faqat pul o'lchov birligida olib borilishi bilan birga, bir turli bir nechta operatsiyalarning summalari umumlashtirilgan holda ko'rsatilishi mumkin.

Analitik schotlarning asosiy vazifasi sintetik schotlarda ko'rsatilgan mablag'lar harakatini ularning turlari bo'yicha, alohida-alohida ma'lumot berishdir. Sintetik schotlardagi yozuvlarning turlari bo'yicha tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganuvchi schotlar analitik schotlar deb ataladi.

Demak, bir analitik schotdagi yozuv bir nechta analitik schotlarda aks ettirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan „Buxgalteriya hisobi to'g'risida“gi qonunga asosan korxonalar va tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishga uning rahbari javobgar deb belgilangandir. Rahbar buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bosh hisobchining ish faoliyatini nazorat qilish bilan birga, hisob ishlarini yaxshilash to'g'risidagi takliflarini hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish schotlar tizimini qo'llashni talab qiladi. Mablag'larning joylanishi va tashkil topish manbalari schotlarda ko'rsatiladi. O'z navbatida, schotlar sintetik va analitik schotlarga bo'linadi.

Buxgalteriya hisobida mablag'lar harakati pul o'lchov birligida hisobga olinadi va umumlashtiriladi. Mablag'lar harakatini pul ifodasida umumlashtiruvchi schotlarga sintetik schotlar deb aytiladi. Lekin buxgalteriya hisobining xususiyatidan kelib chiqqan holda, mablag'lar harakati turlari bo'yicha, miqdori bo'yicha ham hisob-kitob tashkil qilingan. Bir sintetik schotdagi yozuvlar bir nechta analitik schotlarda ko'rsatilishi mumkin. Misol uchun, „Tovarlar“ schotini olaylik:

Boshlang'ich qoldig'i — 500000 so'm.

Oy davomida kiringa qabul qilingan tovarlar summasi — 80000 so'm.

Misolimizdan ko'rinib turibdiki, kiringa qabul qilingan

tovarlar summasi pul ifodasida ko'rsatilgan, lekin „Tovarlar“ schotida uning miqdori, assortimenti bahosi ko'rsatilmagan.

Demak, sintetik schotlarda mablag'lar harakati faqat pul birligida yuritilar ekan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida mablag'lar harakati alohida ahamiyatlidir, chunki ularning harakatini to'g'ri tashkil qilish, *birinchidan*, tegishli mablag'ga bo'lgan talabni aniqlash bo'lsa, *ikkinchidan*, ularning turlari bo'yicha mulk egasiga yetarli ma'lumot berishdir.

Analitik hisob yordamida mulkni turlari bo'yicha o'rganish uchun asos yaratiladi. Analitik hisob mahsulot turlari bo'yicha alohida-alohida yuritiladi va buning uchun maxsus analitik kartochkalardan (varaqlardan) foydalaniladi. Analitik kartochkaning tuzilishi quyidagicha:

Tovar (mahsulot)ning nomi _____ navi _____
Bahosi _____ o'lchov birligi _____
Oy, yil _____

| № | Operatsiya mazmuni | Kirim | | Chiqim | | Qoldiq | |
|---|--------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| | | miqdori | summasi | miqdori | summasi | miqdori | summasi |
| | Oy boshiga qoldiq | | | | | | |
| | | | | | | | |

Oylik oboroti

Analitik hisobga yozish uchun asosiy ma'lumotlar ikki hujjatdan, ya'ni tovar va mahsulotning kirimga qabul qilinganligini ko'rsatuvchi hujjatlardan, ikkinchi hujjat — bu bevosita mahsulotning chiqim qilinganligini ko'rsatuvchi hujjatlardan olinadi.

Analitik hisob ma'lumotlarining kirim qismini jami sintetik schot oborotlari bilan taqqoslaganda uning to'g'riligi aniqlanadi.

Ko'p hollarda analitik hisobni to'g'ri yuritishni ta'minlashda, hisobotlarda, shu jumladan, moddiy javobgar

shaxslarning tovar hisobotlaridan foydalaniladi, deb ham aytiladi, lekin e'tibor berish kerakki, moddiy javobgar shaxslarning tovar hisobotida emas, hisobotga biriktirilgan kirim va chiqim hujjatlaridan olinadi. Kirim va chiqim hujjatlari har bir mahsulot turi bo'yicha va jami summasi bo'yicha ko'rsatiladi va bu ma'lumotlar analitik hisob kartochkalariga yozish uchun asos hisoblanadi.

5-§. Aylanma vedomostlarni tuzish tartibi va ularning asosiy vazifalari

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida mablag'lar harakati alohida ahamiyatlidir, chunki har bir mablag'ning holati, mulk egasi uchun zaruriy mablag' hisoblanadi. Xo'jalik faoliyatida turli manbalardan foydalaniladi va manbalarning o'zgarishi umumlashtirilgan va alohida olingan mablag' holati bo'yicha tahlil qilinadi. Aylanma vedomostlarni tuzishdan asosiy maqsad: birinchidan, kerakli manbalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash bo'lsa, ikkinchidan, ularning holatini umumlashtirilgan tarzda o'rganishdir.

Aylanma vedomostlarni tuzish uchun asosiy ma'lumotlar bevosita buxgalteriya hisobining schotlaridan olinadi.

Hisobot oyning boshiga bo'lgan qoldiq har bir schot bo'yicha aylanma vedomostda boshlang'ich qoldiq schotning oylik oborotlari va oy oxiriga qoldiq ko'rsatiladi („Debet“ va „Kredit“ temalari bo'yicha).

Aylanma vedomostlar tuzishdan asosiy maqsad amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligini nazorat qilish bo'lsa, ikkinchidan, ularda ko'rsatilgan manbalar holatining turlari bo'yicha hujjatda ko'rsatilgan miqdorlari va summalari bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlashdir. Aylanma vedomostni tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining, berilgan buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligi nazorat qilinadi.

Aylanma vedomostlar statistik schotlar bo'yicha tuziladi.

Birinchi navbatda, har bir schotning ma'lumotlarini tegishli jurnal-orderlar bo'yicha hisob qilib, har bir jurnal-order bo'yicha oxirgi koordinatalarini aniqlab chiqishni talab qiladi.

Sintetik schotlar bo'yicha tuziladigan aylanma vedomostning ko'rinishi quyidagicha:

| Schot № | Schotning nomi | Oy boshiga qoldiq | | Oylik oborot | | | |
|---------|----------------|-------------------|--------|--------------|--------|-------|--------|
| | | Debet | Kredit | Debet | Kredit | Debet | Kredit |
| | | | | | | | |
| | Jami: | | | | | | |

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, aylanma vedomostni tuzish uchun har bir sintetik schot ko'rsatkichlarining boshlang'ich qoldig'i, oylik oboroti, oy oxiriga qoldiq bo'yicha alohida-alohida ko'rsatiladi.

Demak, aylanma vedomost deb, hisobot davrida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining hisobot davrining oxiriga bo'lgan holatini aniqlashga aytiladi. O'z navbatida, aylanma vedomostlar 2 xil, ya'ni sintetik va analitik schotlar bo'yicha, alohida-alohida tuziladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, sintetik schot bo'yicha tuziladigan aylanma vedomostda mablag'lar holati, ya'ni boshlang'ich qoldiq, oylik oborotning oxirgi qoldig'i pul ko'rsatkichlarida ko'rsatiladi.

Analitik schotlar bo'yicha tuziladigan aylanma vedomostlarning tuzilishiga nazar tashlasak, bir-biri o'rtasidagi farqni quyidagicha izohlash mumkin:

- *Birinchi*dan, analitik schotlar bo'yicha aylanma vedomostni tuzish uchun asos qilib mol yetkazib beruvchi tashkiliy tomondan yozilgan schot-faktura, yuk xati olinadi. Bu hujjatga asosan aylanma vedomostning kirim qismi ko'rsatiladi.

- *Ikkinchidan*, aylanma vedomostning chiqim tomonidagi ma'lumotlarga asosan tovar va mahsulotdagi korxonadan chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asos qilib olinadi.

- *Uchinchidan*, analitik schotlar bo'yicha aylanma vedomostlar bir vaqtda natura va pul o'lchov birliklarida tuziladi.

Analitik schotlar bo'yicha aylanma vedomostning tuzilishi quyidagicha:

Tovar (mahsulot) nomi _____
 O'lchov birligi _____ Bahosi _____
 Varaq № ...2...yil

| Yozuv | | Opera- tsiya mazmuni | Kirim | | Chiqim | | Qoldiq | |
|-------|---|----------------------------|--------------|-------|--------------|-------|--------------|-------|
| Sana | № | | miq- dori | summa | miq- dori | summa | miq- dori | summa |
| | | Oy boshiga qoldiq | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | Oylik oborot | | | | | | |

Sintetik va analitik schotlar bo'yicha aylanma vedomostlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash maqsadida ularning o'zaro tengligini nazorat qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun sintetik schot bo'yicha tuzilgan aylanma vedomostning boshlang'ich qoldiqning summasi jami analitik schot bo'yicha ko'rsatilgan summaga, ya'ni ularning jami boshlang'ich qoldig'i summasi bilan teng kelishi shartdir.

Analitik schotning chiqish tomonidagi ma'lumotlar aylanma vedomostning chiqish tomonida o'lchov birligi va summasi bo'yicha ko'rsatiladi.

Yuqoridagi fikrlarimizning dalili sifatida quyidagi misollarni keltiramiz:

1. Oy boshiga „Tovarlar“ schotining qoldig'i—50000

so'm. Yuqorida ko'rsatilgan tovar summasi 3 xil assortimentdagi tovarlar summasidan tashkil topgan:

1. „Bahor“ sovitgichi artikuli (140 m) 10 dona. Har bir donasining bahosi 500 so'm.

2. „Minsk“ sovitgichi artikuli (170 m) 12 dona. Bahosi 1000 so'mdan, jami summasi 12000 so'm.

3. „Apsheron“ sovitgichi artikuli (190 m) 20 dona. Bahosi 700 so'mdan. Jami summasi 14000 so'm.

4. „Pomir“ elektr sovitgichi artikuli (0740) 19 dona. Bahosi 1000 so'mdan. Jami summasi 19000 so'm.

Jami tovarlar summasi— 50000 so'm.

Hisobot davrida quyidagi operatsiyalar amalga oshirildi:

1. Mol yetkazib beruvchilardan 110 fakturaga asosan tovar qabul qilindi. Jami — 10000 so'm.

a) fakturada ko'rsatilgan ma'lumotlar „Minsk“ sovitgichi, artikuli 170 m, 4 dona. 1000 so'mdan— 4000 so'm.

Misolimizdagi ma'lumotlarni analitik schotlarda quyidagicha aks ettiramiz:

Tovarning nomi „Minsk“ sovitgichi

O'lchov birligi — dona
2002- yil yanvar oyi

Bahosi 1000 so'm

| Provodka | | Operatsiya mazmuni | Kirim | | Chiqim | | Qoldiq | |
|----------|---|---|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Sana | № | | miqdori | summasi | miqdori | summasi | miqdori | summasi |
| 15.01 | | Oy boshiga qoldiq 110 Fakturaga asosan 210 Fakturaga asosan va hokazo | 4 | 4000 | 10 | 10000 | | |
| 27.01 | | | | | | | | |
| | | Oylik oborot | 4 | 4000 | 10 | 10000 | 6 | 6000 |

Tovarning nomi „Bahor“ sovitgichi

O'lchov birligi — dona

Bahosi — 500 so'm

2002- yil yanvar oyi

| Provodka | | Ope- ratsiya mazmuni | Kirim | | Chiqim | | Qoldiq | |
|----------|---|---|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| Sana | № | | miq- dori | sum- masi | miq- dori | sum- masi | miq- dori | sum- masi |
| 27.01 | | Oy boshiga qoldiq 210 Fakturaga asosan va hokazo | | | 6 | 3000 | | |
| | | Oylik oborot | — | — | 6 | 3000 | 4 | 2000 |

Tovarning nomi „Apsheron“ sovitgichi

O'lchov birligi — dona

Bahosi 700 so'm

2002- yil yanvar oyi

| Provodka | | Ope- ratsiya mazmuni | Kirim | | Chiqim | | Qoldiq | |
|----------|---|----------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| Sana | № | | miq- dori | sum- masi | miq- dori | sum- masi | miq- dori | sum- masi |
| | | Oy boshi- ga qoldiq | | | | | | |
| | | Oylik oborot | — | — | — | — | 20 | 14000 |

b) „Pomir“ sovitgichi artikuli 0740, 6 dona 1000 so'm-
dan — 6000 so'm.

2) Ombordan tovar oluvchilarga tovar chiqarildi.
Faktura №210.

a) „Bahor“ sovitgichi, artikuli 140, bahosi 500
so'mdan, 6 donasi — 3000 so'm;

b) „Minsk“ sovitgichi, artikuli 170 m, bahosi 1000
so'mdan, 10 donasi — 10000 so'm;

d) „Pomir“ sovitgichi, artikuli 0740, 15 dona, bahosi 15000 so‘m.

Jami ombordan chiqarilgan tovarlar summasi: miqdori — 31 dona, summasi — 28000 so‘m.

Keltirilgan misollarimizning sintetik va analitik schotlarning kirim va chiqim tomonlarini quyidagicha yozuvlar bilan ko‘rsatamiz.

1. Kirimga qabul qilingan jami tovarlar summasiga:

debet „Tovarlar“ schoti — 10000 so‘m;

kredit „Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar“ schoti — 10000 so‘m.

2. Ombordan chiqarilgan tovarlar summasiga:

debet „Yuklab jo‘natilgan tovarlar“ schoti — 28000 so‘m;

kredit „Tovarlar“ schoti — 28000 so‘m.

Buxgalteriya yozuvlari schotlar chizmasida quyidagicha aks ettiriladi.

| Dt „Tovarlar“ schoti | | Kt | „Yuklab jo‘natilgan tovarlar“ schoti | | Kt |
|----------------------|--|---------------|--------------------------------------|--|----|
| Boshlang‘ich qoldiq | | | Boshlang‘ich qoldiq | | |
| 1 oper. 10000 | | 2 oper. 28000 | 2 oper. 28000 | | |

„Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan

| Dt | haq“ schoti | Kt |
|---------------------------|------------------------|----|
| Boshlang‘ich qoldiq 50000 | Boshlang‘ich qoldiq... | |
| | 1 oper. 10000 | |

Tovarning nomi „Pomir“ sovitgichi

O'lchov birligi dona —
2002- yil yanvar oyi

Bahosi 1000 so'm

| Provodka | | Opera- tsiya mazmuni | Kirim | | Chiqim | | Qoldiq | |
|----------|---|---|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| Sana | № | | miq- dori | sum- masi | miq- dori | sum- masi | miq- dori | sum- masi |
| 15.01 | | Oy boshi- ga qoldiq 110 | 6 | 6000 | — | — | | |
| 27.01 | | Fakturaga asosan 210 va hokazo | | | | | | |
| | | Oylik oboroti | 6 | 6000 | 15 | 15000 | 10 | 10000 |

Sintetik va analitik schotlardagi yozuvlardan ko'rinib turibdiki, schotlardagi o'zaro aloqalarning bir-birini to'ldirishi mumkin bo'lgan to'liqligini ta'minlaydi, korxon va tashkilot rahbarlari uchun tegishli ma'lumotni beradi.

Shunga alohida e'tibor berish kerakki, korxon va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatida faqat sintetik yoki analitik schotning ma'lumotlari bilan chegaralanmaydi. Uning faoliyati bir necha schotlardagi umumlashtirilgan ko'rsatkichlar bilan boshqariladi. Buning uchun har oyning oxirida tegishli mablag'larning joylashishini va tashkil topish manbalarini o'rganish, shu bilan birga, amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyasiga berilgan buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligini nazorat qilish maqsadida sintetik va analitik schotlar bo'yicha oborot qaydnomalari tuziladi.

Sintetik schotlar birinchi oborot qaydnomasi 2003- yil yanvar oyi uchun.

| | Schotning nomi | Schotlardagi boshlang'ich qoldiq | | Oylik oborot | | Oy oxiriga qoldiq | |
|-----|---------------------------------------|----------------------------------|--------|--------------|--------|-------------------|--------|
| | | debet | kredit | debet | kredit | debet | kredit |
| 01 | Asosiy vositalar | 30000 | — | — | — | 30000 | — |
| 02 | Asosiy vositalar Eskirish | — | 5000 | — | — | — | 5000 |
| 04 | Nomoddiy aktivlar | 1500 | — | — | — | 1500 | — |
| 05 | Nomoddiy boyliklar | — | 500 | — | — | — | 500 |
| 10 | Eskirish | | | | | | |
| ... | Materiallar | 4500 | — | 1000 | — | 5500 | — |
| ... | | | | | | | |
| 40 | | | | | | | |
| 41 | Tayyor mahsulotlar | 20000 | — | — | — | 20000 | — |
| | | 50000 | — | — | 28000 | 32000 | — |
| 50 | Tovarlar | 1000 | — | — | — | 100 | — |
| 51 | Kassa | 5000 | — | 3000 | 1500 | 6500 | — |
| | Hisob-kitob schoti va boshqa schotlar | | 35600 | | 1500 | | 37100 |
| 85 | Nizom fondi | | 30000 | 18000 | 1000 | | 13000 |
| 90 | Banklarning qisqa muddatli kreditlari | | 40000 | | | | 40000 |
| 80 | Foyda va zararlar | | | | | | |
| | Jami | 111100 | 111100 | 32000 | 32000 | 95600 | 95600 |

Sintetik schotlar bo'yicha oborot qaydnomalarini tuzishda har bir sintetik schotning boshlang'ich qoldig'i oylik debet va kredit oboroti, o'zining oxiriga bo'lgan qoldiq hisoblangan bo'lishi kerak.

Analitik schotlar bo'yicha oborot qaydnomalarini tuzishda har bir tovar turlarini alohida oy boshiga bo'lgan qoldiqlarini aniqlashtirish zarurdir. Demak, analitik schotlar bo'yicha oborot qaydnomalari tuzishda faqat analitik schotlardagi yozuvlar asos qilib olinadi.

Analitik schotlar bo'yicha aylanma qaydnomalarni tuzishdan maqsad, birinchidan, tovar va moddiy boyliklarni to'liqligini, turlari bo'yicha ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, tegishli mablag'larga bo'lgan ehtiyojni turlari bo'yicha aniqlashdir.

6-§. Balansdan tashqari schotlar

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tuzilgan shartnomalarning bajarilishi alohida ahamiyatlidir, chunki shartnomaning belgilangan muddatlarda bir me'yorda bajarilishi har ikki tomon uchun moliyaviy holatni yaxshilash, tegishli mablag'larga bo'lgan talabini qondirish imkoniyatini beradi.

Korxonalar va tashkilotlarga taalluqli bo'lgan mablag'lar holati buxgalteriya hisobining tegishli schotlarida ikki yoqlama yozuv bilan ifodalanadi va har bir mablag' turlari bo'yicha hisob-kitob qilinib, hisobot davrining oxirgi qoldiq summaları aniqlanib chiqiladi. Demak, buxgalteriya schotlari hisobi yordamida har bir mablag'ning holati o'rganiladi, u yoki bu mablag'ga bo'lgan talab aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida 1.01.2003- yildan joriy qilingan schotlar rejasi 249- balans va 14- balansdan tashqari schotlarni o'z ichiga oladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va auditorlik tashkilotlari 2002- yil 1- yanvardan boshlab yangi schotlar rejasi asosida faoliyat yuritmoqdalar. 2003- yil 1- yanvardan boshlab ularga birjalar, 2004- yil 1- yanvardan boshlab mulkchilikdan qat'i nazar, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar qo'shiladi. Ko'rinib turibdiki, joriy qilinayotgan schotlar rejasida korxonalar va tashkilotlarning joylanishi va tashkil topishi manbalari bo'yicha 249- balans schotlarida ifoda etiladi.

Shunga qaramasdan, 14- balansdan tashqari schotlar tizimi schotlar rejasida ko'rsatilgan. Balansdan tashqari bu schotlarda ko'rsatilgan iqtisodiy ma'lumotlar balans moddalarida ifoda etilmaydi, ya'ni balans tizimida hisobga olinmaydi.

Ko'p hollarda balansdan tashqari schotlarda shartnoma shartlarini bajarish oqibatlarida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalariga mablag'lar ko'rsatiladi.

Amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini balansdan tashqari schotlarda ifoda etishda ikki yoqlama yozuv usulidan foydalanilmaydi.

Balansdan tashqari schotlarda bir tomonlama yozuv beriladi.

Misol. Mol yetkazib beruvchilar tomonidan jo'natilgan tovarlar tuzilgan shartnoma shartlariga to'liq javob bermaydi. Tovarning bahosi— 50000 so'm. Tovarni qabul qilish to'xtatilmaydi. Shartnoma shartlariga javob bermaydigan tovarlar balansdan tashqari 002 „Mas'ul shaxslarga qabul qilingan tovar moddiy qiymatlar“ schotining debetida ko'rsatiladi. Bu operatsiyada kreditlanuvchi schot ko'rsatilmaydi.

Demak, balansdan tashqaridagi schotlarda yozuvlar korxon va tashkilot mablag'larining o'zgarishiga o'z ta'sirini o'tkazmaydi.



TEST SAVOLLARI

1. Sintetik schotlar qaysi tomonlardan tashkil topgan?
A) passiv; B) aktiv;
C) debet va kredit; D) balansdan tashqari;
E) barcha javoblar to'g'ri.
2. Sintetik schotlarda mablag'larning harakati qanday o'lchov birliklarida ko'rsatiladi?
A) donada; B) tonnada;
C) kilogrammda; D) so'mda;
E) metrda.
3. Analitik schotlarda natural o'lchov birliklaridan foydalaniladimi?
A) ha; B) yo'q;
C) faqat pul o'lchovida; D) faqat donada;
E) barcha javoblar to'g'ri.
4. Passiv schotlarda mablag'lar manbalarining ko'payishi schotning qaysi tomonida ko'rsatiladi?
A) kredit tomonida; B) debet tomonida;
C) balansda; D) sintetik schotlarda;
E) aylanma vedomostlarda.

5. Aktiv schotlarda manbalarning ko'payishi schotning qaysi tomonida ko'rsatiladi?

- A) kreditida; B) debetida;
- C) schotda; D) balansda;
- E) hujjatda.

6. Sintetik schotlar bo'yicha tuzilgan aylanma vedomostlarning boshlang'ich qoldig'i ko'rsatiladimi?

- A) yo'q; B) ko'rsatiladi;
- C) balansda ko'rsatiladi; D) schotda;
- E) analitik yozuvlarda.

7. Analitik schotlarda natural o'lchov birliklari ishlatiladimi?

- A) ishlatilmaydi; B) ishlatilishi mumkin emas;
- C) ishlatiladi; D) faqat oy boshiga;
- E) sintetik yozuvlar.

8. Sintetik schotlarning ma'lumotlariga asosan balans tuzish mumkinmi?

- A) mumkin; B) mumkin emas;
- C) ikki yoqlama yozuv kerak; D) hujjat kerak;
- E) barcha javoblar to'g'ri.

9. Balansdan tashqari schotlarda ko'rsatilgan mablag'larga ikki yoqlama yozuv beriladimi?

- A) beriladi; B) faqat pul ifodasida;
- C) berilmaydi; D) balansga olinadi;
- E) schotlarda ko'rsatiladi.

10. Hisobot davrining oxirida aktiv schotlarda qoldiq qaysi tomonda qoladi?

- A) kreditda; B) debetda;
- C) har ikkala tomonda; D) balansda;
- E) barcha javoblar to'g'ri.

11. Passiv schotlarda qoldiq qaysi tomonda qoladi?

- A) debetda; B) tranzitda;
- C) debitorlarda; D) kreditda;
- E) analitik tomonda.